

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INJINERINGI
fakulteti
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
kafedrası**

« Mahallada o‘quvchi talabalar dasturiy modulini yaratish » mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi

Imzo

Yoqubov T.

Rahbar

Imzo

Murtozayev.SH

Himoyaga ruxsat etildi “Axborot texnologiyalari ” kafedrası mudiri _____ I.f.d. X.S. Muxitdinov	Himoya uchun DAKga yuborildi “Kompyuter injiniringi” fakulteti dekani _____ S.B. Davronov
« » 2015y	« » 2015y

Qarshi – 2015 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INJINIRINGI
fakulteti**

Informatika va axbarot texnologiyalari talim yunalishi

«Tasdiklayman»

_____ kaf. mudiri
I.f.d. X.S. Muxitdinov
« _____ » _____ 2015y

**Bitiruv malakaviy ishi buyicha
TOPSHIRIQ**

Talaba Yoqubov To‘lqin Xudoyberdiyevich.

1.Malakaviy ish mavzusi: Mahallada O‘quvchi talabalar dasturiy modulini yaratish.

2.TATU Karshi filialining № _____ buyrug‘i bilan _____ da tasdiqlangan

3.Malakaviy ishini topshirish muddati _____ 2015y _____

4. Malakaviy ish uchun ma’lumotlar:

Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bazasi.
Mahalla faoliyatini boshqarish va uquvchi modulini ishlab chiqish bazasi.
Maxalla talabalar modulini MS Access tizimida bazasini yaratish.

5.Xisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chikilishi lozim bulgan savollar ruyxati):

Kirish, Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bazasi.
Mahalla faoliyatini boshqarish va uquvchi modulini ishlab chiqish bazasi.
Maxalla talabalar modulini MS Access tizimida bazasini yaratish, , xulosa, adabiyotlar va ilova.

6. Grafik materiallar. Slaydlar:

Bitiruv malakaviy ishini hisobot qismini bajarish davomida rasmlardan va tarmoq chizmalaridan foydalanilgan. Prezentatsiya slaydlardan tashkil topgan.

7. Malakaviy ish bo‘yicha maslahatchilar:

8. Malakaviy ishini bajarilishi bo‘yicha kalendar grafik

№	Malikakiy ishning bo‘limlari	Malakaviy ishning hajmi, bet	Umumiy hajmga nisbatan, %	Bajarlanganligi to‘g‘risida belgi	Izox
	Kirish	7	8.53	Bajardi	
I BOB	Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bazasi			Bajardi	
1.1	Oila-mahalla-ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish bazasi	15	18.29	Bajardi	
1.2	Barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligini amalga oshirish shakllari va modullari	13	15.85	Bajardi	
1.3	Mahalla o‘quvchi modulini shakllantirish tartib tamoyillari	19	23.17		
II BOB	Mahalla o‘quvchi modulini shakllantirish tartib tamoyillari			Bajardi	
2.1	Mahalla faoliyatini boshqarish va uquvchi modulini ishlab chiqishda modellashtirish usullaridan foydalanish	3	3.65	Bajardi	
2.2	Mahalla uqo‘vchi moduli ma’lumotlar bazasini loyihalash	2	2.43	Bajardi	
2.3	Yarashtirish komissiyalari	8	9.75	Bajardi	
III. BOB	Maxalla talabalar modulini MS Access tizimida bazasini yaratish.			Bajardi	
3.1	MS Access tizimida bazasini mahalla va uquvchi moduli	4	4.87	Bajardi	
	Xulosa	1	1.21	Bajardi	
	Foydalanilgan adabiyotlar	2	2.43	Bajardi	
	Ilova	8	9.75	Bajardi	
	<i>Jami:</i>			Bajardi	
		82	100%		

Malakaviy ish rahbari: _____

Topshiriq olingan kun: _____

Talaba: _____

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

«Kompyuter injiniring» fakulteti *Informatika va axborot texnologiyalari* ta'lim yunalishi
Yoqubov To'liqin Xudoyberdiyevichning bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: *Mahallada uquvchi talabalar dasturiy modulini yaratish.*

Malakaviy ishning xajmi: 81

a). yozma izoxismi: varaqlar soni: 73 b). grafik qismi: chizmalar soni: 20

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi:
Bugungi kunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan qolmasligi hamda hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazuvchi vorislar ekanligi ayni haqiqatdir..

Malakaviy ishning yozma izox va grafik materiallarining tarkibi va bajarilish sifati.

BMI varoqdan iborat, varoq ilova, 4 ta rasmdan foydalangan. Har bir bo'lim yaxshi rasmiylashtirilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuklari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanilganligi.

Malakaviy ishni amalga oshirishda 15 dan ortiq adabiyotlar hamda 15 ga yaqin internet manbalariga murojaat etilgan.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal ball-100ball) va bitiruvchiga unga mos yo'nalish bo'yicha "Bakalavr darajasi" berilishi mumkinligi to'g'risida xulosa.
Bitiruv malakaviy amaliy jihatdan to'liq ishlab chiqilgan. Talaba Yoqubov To'liqinning Bakalavr darajasini olishga munosib deb o'ylayman va bu ishni 87 ball bilan baholayman.

Taqrizchi: _____
Imzo

_____ mansabi, ish joyi, ilmiy darajasi, f.i.sh

« _____ » _____ 2015 yil

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**Bitiruv malakaviy ish buyicha raxbar
TAKRIZI**

Talaba Yoqubov To'lg'in Xudoyberdiyevich

Mavzu Mahallada uquvchi talabalar dasturiy modulini yaratish.

Malakaviy ish xajmi:

Yozma izoxismi:

Chizmalar soni:

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan qolmasligi hamda hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazuvchi vorislar ekanligi ayni haqiqatdir.

Bitiruvchining umumtexnik, maxsus va kasbiy tayyorgarligi tavsifi:

Bitiruvchi axborot texnologiyalari va kompyuterdan erkin va oqilona foydalana oladi. Talaba Informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi nazariy va amaliy tayyorgarligi bakalavr darajasi talablariga javob beradi.

Bitiruvchi talabani mustakil ishni bajarish layokati, maxsus adabiyatlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari. Talaba BMI ni bajarish jarayonida o'quv va chet el adabiyotlardan foydalana olish, mavzuga tegishli internet materiallarini izlab topish va undan foydalana olish qobiliyatiga ega ekanligini shuningdek maxsus mutaxassislik fanlaridan yaxshi bilimga ega ekanligini ko'rsatdi.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari. "Mahallada uquvchi talabalar dasturiy modulini yaratish" maxallani yaqindan o'rganishga boshlang'ich manba vazifasini o'taydi. Talaba Yoqubov To'lg'in Xudoyberdiyevichning bitiruv-malakaviy ishi 5521900 "Informatika va axborot texnologiyalari" yo'nalishi bo'yicha, bitiruv-malakaviy ishlarga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi, BMI ni 88 ball bilan baholayman va u texnika fanlari bakalavri unvoniga loyiqdir.

Malakaviy ish baxosi: (maksimal ball - 100 ball)

Malakaviy ish raxbari _____
Imzo

mansabi, ish joyi, ilmiy darajasi, f.i.sh

« _____ » _____ 2015-yil

KIRISH

Mustaqillik yillari O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan yangilanishlar va o'zgarishlar davri bo'lib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan ulkan natijalar muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'lining porloq ekanligini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, izchil iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini faol himoya qilish, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish kabi yo'nalishlar suveren davlatimizning adolatli va insonparvar ichki siyosatida doimiy ustuvor bo'lib kelayotganligini, ular sirasida jamiyatning ma'naviy yuksalishi va shaxs ma'naviy kamolotiga berilayotgan e'tibor alohida o'rin egallashini to'la isbotladi.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, dunyodagi birorta davlat ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlodning ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun qayg'urish, ularning zamon talablariga mos bilim olishi, kasb-hunar tanlashi, qobiliyati va iqtidorini erkin namoyon qilishi va yanada rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda O'zbekistonga tenglasha olmaydi. Bu haqiqatni bugungi kunda jahon hamjamiyati ham chuqur e'tirof etganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Ayni paytda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari barchamizga yangi vazifalar yuklamoqda. Shunday vazifalardan biri – yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga yuksak ma'naviyat egasi bo'lish hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadri-qimmatni e'zozlaydigan insonlar qilib tarbiyalashdir.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, “har tomonlama etuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni engish, biz ko'zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz”. Ushbu talab asosida mamlakatimizda nasli toza, jismonan sog'lom, bilim va tafakkuri o'tkir, ma'naviyatli, aniq kasbga va mutaxassislikka ega, g'oyaviy sobitqadam farzandlar, ya'ni barkamol avlod modeli yaratildi va uni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi ma'ruzasida e'lon qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 20 yilligiga bag'ishlab 2012 yil 7 dekabrda bo'lib o'tgan tantanali yig'ilishdagi ma'ruzalarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla institutining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirish, mahallalar obodligini ta'minlash masalalariga keng jamoatchilikning e'tiborini qaratdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizdagi fuqarolar yig'inlari faoliyatini samaradorligini oshiri bo'yicha, Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator yig'ilish qarorlari qabul qilindi. Xususan, 2012 yil 3 dekabrda 01-07/9-13-son bilan ro'yxatga olingan 262-sonli, Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 21 fevraldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 51-sonli yig'ilish bayonlarida fuqarolar yig'inlarini namunali xolatga keltirish masalasi bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

Yuqoridagilar va Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 iyunda 01-07/1-352-son bilan ro'yxatga olingan "Mahalla fuqarolar yig'inlari faollari, xususan diniy-ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilarini rag'batlantirish tizimini shakllantirish hamda "Eng namunali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" tanlovini 2012 yilda tashkil qilish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 117-sonli bayoni bilan tasdiqlangan Nizomning 4-bobida belgilangan talablar asosida, namunali fuqarolar yig'inlarini shakllantirish tartib-tamoyillari, (o'rtacha, yaxshi, namunali) holatdaligini baholash mezonlari shakllantirildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va hududlarida milliy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etish, ularda istiqomat qilayotgan aholi turmush darajasini yanada yaxshilash hamda mahallalar

taraqqiyotining turli sohalarini qamrab olgan holda ularni kompleks rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarni o'rganish, bu boradagi ilg'or tajribani ommalashtirish hamda mavjud muammolar echimiga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Endilikda yoshlar millati, xalqi, qolaversa, o'zi va oilasi manfaatlari uchun erkin mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunday muhim ijtimoiy o'zgarishlar mustaqil davlatimiz Konstitusiyasida, “O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi” va boshqa qonunlarda umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq ravishda mustahkamlab qo'yilgan. Bularning barchasi yoshlarda yangicha tafakkurni, milliy, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi.

Bugungi kunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan qolmasligi hamda hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga etkazuvchi vorislar ekanligi ayni haqiqatdir.

Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan insonlar, ya'ni oilada – ota-onalar, mahallada – qo'ni-qo'shni va keng jamoatchilik, ta'lim muassasasida – o'qituvchi va murabbiylar kelgusi avlod barkamolligi yo'lida o'g'il-qizlarimizning ulug' ajdodlarimizga munosib bo'lishlari uchun mas'uldirlar.

Ushbu sharaflı va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirishda o'zaro chambarchas bog'liq uch omil – oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, mustahkamlash va samaradorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to'g'risida” 2012 yil 27 fevraldagi PQ-1717-sonli qarorining 69-bandi ijrosi maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi 175-sonli qarori bilan “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi tasdiqlandi va Xalq

ta'limi vazirligi huzurida Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi Jamoat kengashining faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi Jamoat kengashining Nizomi ko'p yillar davomida to'plangan tajriba asosida ishlab chiqilgan bo'lib, fikrimizcha, yoshlar tarbiyasi va ma'naviyatini shakllantirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar faoliyati uchun foydali bo'ladi deb hisoblaymiz.

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorlik mexanizmini shakllantirish va uning to'laqonli faoliyatiga erishish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasida oila, mahalla va ta'lim muassasalarining har birining belgilangan vazifalari, yoshlarni tarbiyalashda ularning o'zaro sherikchiligi va hamkorligini to'liq amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, bu mexanizmni ishlatish tamoyillari, bosqichlari, hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish tizimi ifodalab berilgan. Jamoat Kengashining Nizomi, tarkibiy tuzilmasi, ishlash tartibi, uni hayotga tadbiq etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Asosiy masala endi yuqorida ko'rsatilgan dasturiy hujjatlarni hayotga tadbiq etish, ularning joylardagi ijrosiga mas'uliyat bilan yondashish, barcha mas'ul sub'ektlar – avvalo oila, mahalla, ta'lim muassasalarining, shuningdek tegishli davlat organlari, biznes vakillari, nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining birgalikdagi ishini yo'lga qo'yish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ishning maqsadi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” siyosiy qurilish dasturining bosh yo'nalishlaridan biri davlatning bir qator vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishdan iborat bo'lib hisoblanadi.

Ushbu tizim Elektron hukumat tizimining asosi bo'lib, unda boshqa soha axborot tizimlari bilan ham integrasiyasi ko'zda tutilgan.

- iqtisodiy axborotlarni ilmiy asoslangan taxlil qilish asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradigan matematik modellar, algoritmlar va dasturiy ilovalar asosida mahalla modulini ishlab chiqishdan iborat.

Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni xal etish talab etiladi:

- aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish, axborot bazasini yaratish

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish axborot bazasini yaratish.

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish axborot bazasini yaratish.

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan yagona axborot bazasini yaratish. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yagona “oyna”da monitoringini olib borish va boshqa soha axborot tizimlari bilan integrasiyalashuvi ta'minlash. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati boshqaruvini takomillashtirish va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda boshqa soha axborot tizimlari bilan ham integrasiyasi ko'zda tutilgan.

- bu tizim orqali«Elektron hukumat» tizimi ma'lumotlar bazasi va axborot tizimi komplekslarini yaratishda maxalla o'quvchilar modulini yagona avtomatlashtirilgan elektron axborot tizimi strukturasi ishlab chiqish va davlatimizda joriy qilishdir

Ma'lumotlar bazasi: SQL dasturlash tili MS ACCESS dasturiy tilida yaratiladi.

Tadqiqot ob'ekti: MS Access dasturi yordamida Qarshi tuman “Dinav” mahalla faollari yig'ini jarayonini ro'xatdan o'tkazish, ma'lumotlarning tahlili,

jadval, so'rov, xisobotlarni shakillantirish, taqdimotlarni yaratish kabilarni bajarish iborat. MS Access dasturi savdo hisob ishlarini bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, u istagan sohaning ma'lumotlar bazasida ishlash uchun mo'ljallangan.

Tadqiqotning uslubi va uslubiyoti - asosi bulib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va Oliy Majlisi tomonidan mavzuga oid qabul qilingan qarorlar, qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlar, soxa yirik olimlari tomonidan yaratilgan nazariyalar tadqiqotning uslubiyoti asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot davomida obstrakt – mantiqiy, iqtisodiy – statistik va matematik modellashtirish kabi qator tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning yangiligi quyidagilarda o'z aksini topgan:

- aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish, axborot bazasi yaratildi

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish axborot bazasini yaratildi.

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish axborot bazasini yaratildi.

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan yagona axborot bazasini yaratish. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yagona “oyna”da monitoringini olib borish va boshqa soha axborot tizimlari bilan integrasiyalashuvi ta'minlash. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati boshqaruvini takomillashtirish va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishldi.

- bu tizim orqali «Elektron hukumat» tizimi ma'lumotlar bazasi va axborot tizimi komplekslarini yaratishda maxalla o'quvchilar modulini yagona avtomatlashtirilgan elektron axborot tizimi strukturasini ishlab chiqildi.

Ma'lumotlar bazasi: SQL dasturlash tili MS ACCESS dasturiy tilida yaratildi.

MS Access bir qator funktsiyalariga ega bo'lib, ulardan ma'lumotlar bazasini yaratishda foydalanish mumkin.

Amaliy ahamiyati va tatbiqi. Tadqiqot natijalari mahalla faoliyatini boshqarish - ijtimoiy sohalarni taxlil qilish va istiqbolini belgilashda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali vosita vazifasini bajaradi.

funksiyalarni, so'rov, hisobotlar yaratish mumkin.” mahalla faoliyatini boshqarishda foydalanish mumkin.

Olingan asosiy natijalar – mahalla faoliyatini boshqarish - ijtimoiy sohalarni tahlil qilish, istiqbolini belgilashga muljallangan uslubiy tavsiyalar, modellashtirish algoritmi va ma'lumotlar bazasi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish (BMI) kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

1.Bob. “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bazasi.

1.1.Oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish bazasi

Har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalashda oilalar, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda olib boradigan faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish, farzand tarbiyasida davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilik faolligini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi” qonunida voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, uni amalga oshirishda jamoatchilik tashkilotlari, ta'lim muassasalari, huquqiy-targ'ibot organlari hamda ota-onalarning vazifalari, ularni hamkorlikda amalga oshirish tizimi yaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining 30-moddasida “Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar” deb belgilab qo'yilgan.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning 3.2 bandida ta'lim oluvchilarga shart-sharoit yaratishda jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga, 4.4 bandida esa jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, Ma'naviyat targ'ibot markazi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, ko'plab jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o'zaro puxta hamkorlik qilishga alohida e'tibor berilgan.

Ushbu me'yoriy hujjatlar talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, masalaning mohiyati avvalo o'quvchi yoshlar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan tartibbuzarliklarning oldini olishda manfaatdor vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat vakillari bilan hamkorlikda tashkiliy-pedagogik ishlarni tashkil etish bilan bog'liq. Ushbu sohada keng miqyosli faoliyat olib boruvchi barcha bo'g'inlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, mamlakatimiz fuqarolari orasida g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni takomillashtirish, shuningdek loqaydlik, beparvolik, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik kabi tuban ijtimoiy illatlar jamiyat va davlat uchun g'oyat zararli ekanligini yoritib berishda Prezident islom Karimovning “G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyilini yoshlar ongiga singdirish, Vatanini chin dildan sevadigan, millat ravnaqini o'ylaydigan avlod qilib shakllantirishda oila-mahalla-ta'lim muassasalari” hamkorligining o'rni muhimdir.

- “Hech kim, hech qachon e'tibordan chetda qolmasligi kerak” tamoyili asosida o'quvchi yoshlarning zararli odatlar yo'lga kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, bunda daydichilik va tilamchilikning oldini olishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

- qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta'lim muassasalariga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatishga ko'maklashish, giyohvandlik illatining og'ir oqibatlari haqida muntazam tushuntirish olib borish;

- o'quvchi yoshlarda kelgusi oilaviy hayot, mahalla va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish;

- ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning doimiy ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash va b.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar bazasidan foydalanib, barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ishini mustahkam tamoyillarga tayangan holda mahalla va o'quvchi modulini ishlab chiqish talab etiladi.

Birinchidan, samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish zarur. Bunday jamoatchilik aynan mahallada to'plangan bo'lib, yosh avlodga qadriyatlarimiz va an'analarimizni anglatish, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu fazilatlarni kattalar, hayot tajribasiga ega insonlar, mashhur kishilar faoliyati misolida o'rgatish yaxshi samara beradi.

Ikkinchidan, hurfikrlilikka tayangan holda yoshlarni xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizning eng yuksak maqsadlar yo'lida fidokor bo'lish ruhida tarbiyalash, bunda mahalla oila va unda kamol topayotgan farzandlar uchun tarixan o'z isbotini topgan birlamchi va mustahkam qo'rg'on ekanligini anglatish muhimdir.


Uchinchidan, yoshlarni O'zbekistonga, ulug' ajdodlarimizga munosib vorislar bo'la oladigan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash aynan yon-atrofdagilar, yaqinlar va uning timsoli bo'lgan mahalladan ildiz oladi.

To'rtinchidan, jahon umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida ta'lim va tarbiya olish barkamollikning muhim sharti ekanligini anglatish. Bunday barkamollik o'quvchining ota-onasisiz va ustozlarisiz shakllana olmaydi.

Beshinchidan, bilimli, mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllanishi o'quvchiga o'zida mavjud bo'lgan barcha salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga, hayotda o'z o'rnini topishiga, shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun muhim omil ekanligini anglatish zarur. Bunda: bir tomondan o'quvchining bosh tayanchi bo'lgan oila, ikkinchi tomondan farzandning o'z yaqinlari bilan yashash maskani bo'lgan mahalla, uchinchi tomondan ta'lim beshigi bo'lgan ta'lim muassasasining yaqin birligi hal qiluvchi rolni bajarishi shart.

Oltinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan ongli, tafakkuri tiniq, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga kamarbasta komil insonlarni tarbiyalashga barcha mas'ulligini jamoatchilik orasida muntazam targ'ib etib borish talab etiladi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorligi doimiy va murakkab jarayon bo'lib, o'z bosqichlariga ega. Shunday bo'lishi ham kerak, zero ta'lim va tarbiyadek kengqamrovli soha davriylik va davomiylikni talab etadi



(1-jadval).

Barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligini mustahkamlash

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir”. Darhaqiqat, har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oilaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari ilk bor oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori ham oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Ota-onaga hurmat, ular oldida umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlar oila muhitida shakllanadi.

Ko'rinib turibdiki, oilaviy tarbiya masalasida jiddiy xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, har qaysi xonadondagi ma'naviy muhitni o'zaro hurmat, odob-axloq, insoniy munosabatlar asosiga qurish lozim bo'ladi. Farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish bilan bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, ahloq-odob, yuksak ma'naviyat negizida parvarishlab, o'z iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari asosida bo'lg'usi kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish oilada ota-onaning muhim burchidir.

Ushbu haqiqatdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning insoniy burchimizga aylanishi zarur. Shu bois mustaqillik sharofati bilan oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma'naviy o'zgarishlar bilan uyg'unlikda rivojlantirishga, uning nufuzini oshirishga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor

berilmoqda. 2013 yilning Prezidentimiz tomonidan “Obod turmush yili” deb e’lon qilinishi bunga yana bir yorqin misol bo’la oladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida bolalarning jismoniy sog’lom va ma’nan barkamol va bo’lishlari uchun oila bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlarni quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- oilada farzandni komil inson qilib tarbiyalashda ota-onalarning bilim darajasini oshirishga erishish;

- ota-onaning o’z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun ta’lim muassasalari va mahalla oldidagi javobgarligini oshirish;

- oilada farzand shaxsiga e’tibor va hurmat bilan yondashish, sog’lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-onaga muhabbat tuyg’usini muttasil ravishda shakllantirish;

- farzandlarga chuqur dunyoviy bilim berish, ularning ma’rifatli va ma’naviyatli, erkin fikrlovchi shaxs bo’lib etishishlarini ta’minlash;

- bolalarning qiziqishi, iqtidori va extiyojlarini hisobga olgan holda kasbga yo’naltirish;

- ularni mustaqil fikrlashga o’rgatish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- bolalarning bo’sh vaqtlarini to’g’ri tashkil etish va ularning qo’shimcha ta’lim olishlariga, o’z ustida ishlashlari uchun shart-sharoit yaratish;

- bolada tejamkorlik va mehnatsevarlik sifatlarini shakllantirish;

- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo’nalishlarini uyg’un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta’minlash;

- bolalarga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko’nikmalarni singdirish, ularni ichkilikbozlik, giyohvandlik illatlar ta’siridan muhofaza qilish bo’yicha tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

- farzandni oilaviy hayotga tarbiyalashda jarayonida ular ongiga boy ma’naviy merosimiz, axloq-odob qoidalari, urf-odatlarimiz va an’analalarimizni bugungi kun talab va ehtiyojlari bilan uyg’unlashtirgan holda singdirib borish;

- jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-hunar egallashlari uchun shart-sharoit yaratish;

- oilada bir-birlarini doimiy ravishda o’zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik, tibbiy qo’llab-quvvatlash ko’nikma va odatlarini shakllantirish, oilaviy dam olishni to’g’ri tashkil etish;

- oilada turli muammoli vaziyatlarni oqilona hal etishda yoshlarni muloqot madaniyatiga o’rgatish;

- oilada ota-ona va farzand o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni mustahkamlashda turli mavzuda suhbatlar o’tkazish;

_ radio to'lqinlari, televideniada berilayotgan kuy va qo'shiqlar, internet tarmog'idan olinayotgan ma'lumotlar, disk, telefonlardagi ma'lumot, tasvirlar ota-onalar tomonidan saralanib, bolalarga taqdim etilishiga erishish;

_ bolaning maktabdan tashqari turli xil ta'lim muassasalaridagi (musiqa va san'at, sport maktablari, "Barkamol avlod" bolalar markazlari, mahallalar qoshidagi turli to'garaklar markazlari) to'garak mashg'ulotlariga jalb etish borasida ota-onalarga ko'maklashish.

Yurtboshimiz o'zbek mahallalarining azaldan milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelganligini e'tirof etib, "Mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi" degan fikr bildirgan. Haqiqatdan ham, o'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, yordamga muhtoj kimsalar xolidan xabar olish, etim-esirlarga yordam berish, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan birgalikda o'tkazish, yaxshi - yomon kunda insonlarning birga bo'lishi kabi xalqimizning asl urf-odatlar va an'analari avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. O'zini-o'zi boshqarish tizimining millatimizga xos bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, dilida va hayotida chuqur joy egallab kelgani bejiz emas. "Mahalla – ham ota, ham ona" degan xikmatomuz naql ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilinadi. Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyat, udum va an'alarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda.

Mustaqilolik yillarida mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirildi. Davlatimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi Konstitusiyamiz tarkibiga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi. Mahallalar bugun o'zini-o'zi boshqarish idorasi, huquqiy demokratik darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqdalar. Mahalla boshqaruviga bunday katta e'tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchilligidan dalolat beradi. Ayni paytda u yurtimizda amalga oshirilayotgan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan tamoyilning ifodasi bo'lib, ma'naviy hayotimizni yanada mustahkamlash, yosh avlodning ongu tafakkurini zamonaviy bilimlar va ilg'or tarbiya tizimi asosida shakllantirish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtboshimizning 2010 yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Qo'shma majlisidagi ma'ruzasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishning aniq vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Shu ma'noda mahalla instituti hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning huquqiy madaniyatini, ijtimoiy faolligini, iqtisodiy va ishbilarmonlik faoliyatini oshirish borasida sharoit

yaratmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida barkamol avlodni tarbiyalashda quyidagi yo'nalishlar mahalla bilan hamkorlikda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz:

– ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda ta'lim muassasalari bilan birgalikda qatnashib, oqilona echimlar topishda faollik ko'rsatish;

– farzandlari tarbiyasi bilan etarlicha shug'ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, lozim hollarda bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko'rish;

– mahalla hududidagi ta'lim muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

– bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, baynalmilallik ruhida tarbiyalashga ko'maklashish;

– yoshlarga diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning salbiy ta'sirini to'g'ri anglab etishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'g'itlarini singdirib borishga keng jamoatchilikni safarbar qilish;

– mahalla xududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olish;

– mahallada milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan yutuqlar targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

– ta'lim muassasalari tavsiyasiga ko'ra, turli yo'nalishdagi iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

– farzandlariga ma'naviy-ahloqiy tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalarni rag'batlantirish (Minnatdorchilik xati yoki e'lon qilish orqali) va ularning hayot tajribasini ommalashtirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish;

– mahalla hududida istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va "Usta-shogird" yo'nalishida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;

– mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan shu erda istiqomat qilayotgan va moddiy jihatdan qiynalgan yoshlarni ish joylari bilan ta'minlashga ko'maklashish;

– har bir yosh yigit-qizda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirishda hamkorlik qilish;

– yangi oila qurayotgan yoshlar mas'uliyatini oshirish, ularga oilaviy munosabatlarga doir bilimlar berish uchun mahalla qoshida “psixologik maslahatxona”larni tashkil etish;

– 9-sinf bitiruvchilarini kasb-hunar kollejlari va akademik liseylarga joylashtirish jarayonida ta'lim muassasalari va ota-onalarga ko'maklashish;

– akademik lisey, kasb-hunar kolleji o'quvchi-yoshlarini ish bilan ta'minlash masalalarini hal etish, ayniqsa, qishloq joylarida ularning mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish, yosh qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish;

– oilalar, o'smirlar va yoshlar ma'lum bir vaziyatlarda duch keladigan turli muammolarni bartaraf etish uchun mahalla qoshida “ishonch” telefonlari tashkil etish;

– erishilgan yutuqlar, amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, matbuot sahifalari) orqali keng yoritish, targ'ibot ishlarini olib borish;

– ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bolalar va o'smirlar o'rtasida sport musobaqalari, sport to'garaklari tashkil etish, sport sohasida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlarni moddiy-ma'naviy jihatdan rag'batlantirish va b.

Prezident Islom Karimov ko'p bora “Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart”, deb ta'kidlaydi. Tabiiyki, inson hayoti va uning ma'naviyatini to'g'ri shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil - bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Aynan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiya inson kamolotining, millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovidir. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, ayni vaqtda, ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir.

Maktab, umuman ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimiz - O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida (41-modda) belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, ushbu soha keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori aynan bilim dargohlarida, aniqrog'i maktab darsxonalarida yaratiladi. Boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Aytilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir farzand timsolida avvalo, bola shaxsini ko'rish zarur. Demak,

farzandlarimizni erkin, mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga asta-sekin, ammo muttasil ega bo'lib boradigan, ongli yashaydigan, voqea va hodisalarga daxldorlik tuyg'usiga ega bo'lgan, har tomonlama komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasidir.

Ma'lumki, mamlakatimizda ta'lim va tarbiya – o'zaro uzviy bog'liq sharqona tushunchalar sifatida qaraladi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmasligi davlatimizning ta'lim sohasidagi siyosatida ham ustuvor tamoyil hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida barkamol avlodni tarbiyalashda quyidagi yo'nalishlar ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz:

- _ ta'lim muassasalarida ahillik, ijodiy muhit, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, bu maqsadga erishish uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyat yaratish;
- _ ta'lim muassasalarida “Ichki tartib qoidalar” va “Odob-axloq qoidalari” talablariga to'liq rioya etilishiga erishish;
- _ ta'lim muassasalari negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi “Ota-onalar universitetlari” tashkil qilish va mashg'ulotlarni zamonaviy shakl va usullarda tashkil etish;
- _ ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, axborot-kommunikasiya vositalaridan o'numli foydalanish bo'yicha shart-sharoit yaratish;
- _ huquqiy tarbiyani doimiy reja asosida o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, mutaxassislar va jamoatchilikning faol ishtirokida amalga oshirish;
- _ tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik, diniy ekstremizm va milliy taraqqiyotimizga zararli boshqa g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;
- _ ta'lim-tarbiya jarayonida turli xil chalg'ituvchi vositalar (qo'l telefonlari, videotasmalar, internet tarmog'idagi ma'lumotlar, kompyuterdagi o'yinlar)ning zararli oqibatlari haqida doimiy va keng targ'ibot-tashviquot ishlarini olib borish;
- _ hozirgi murakkab sharoitda yosh avlod ongi va shuuriga ta'sir etish uchun bo'layotgan ma'naviy tahdidlarga nisbatan muntazam tarbiya va tegishli mashg'ulotlar yordamida mafkuraviy immunitet hosil qilish;
- _ ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yoshiga mos ravishda sog'lom g'oyalarni, milliy g'oya tamoyillarini singdirishga tabaqalashtirilgan holda yondashish va bu faoliyatni uzluksiz tarzda olib borish;
- _ yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularni vatanparvarlik, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- _ o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, ayniqsa sport bilan shug'ullanishlari, qiziqishlariga mos bo'lgan to'garaklarda shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- _ o'quvchi-yoshlarda kitobxonlik, mutolaa madaniyati, badiiy adabiyotga muhabbatni zamon talablarini e'tiborga olgan holda shakllantirish;
- _ o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olib, ularni turli sohalar bo'yicha kasb-hunarga yo'naltirish, ularning biror bir aniq kasb-hunarni egallashi uchun poydevor yaratish, bunda otalarning rolini kuchaytirish maqsadida "Otalar majlisi"ni o'tkazib borish hamda uzluksiz va tizimli yondashishni tashkil etish (maktabgacha ta'lim - umumiy o'rta ta'lim - o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi - oliy ta'lim);
- _ o'quvchilarni jamoat ishlarida faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali islohotlar va jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonining faol ishtirokchisi ruhida tarbiyalash;
- _ bola tarbiyasi namunali yo'lga qo'yilgan oilalar tajribasini tegishli muassasalar hamkorligida o'rganish va ota-onalar majlislarida ommalashtirish tajribasini yo'lga qo'yish;
- _ maktabga (kasb-hunar kollejlari va liseylarga) surunkali kelmaydigan o'quvchi-yoshlarni ta'lim muassasalari va mahalla faollari hamda hamkorlik kengashi yordamida o'qishga jalb etish;
- _ o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga etmaganlarni ro'yxatga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko'rib, Jamoat kengashida muhokama qilish;
- _ tarbiyasi og'ir yoshlar, farzandlar tarbiyasiga bee'tibor ota-onalar bilan surunkali va alohida ishlash, ularga pedagogik maslahatlar berib borishni tizimli tashkil etish;
- _ imkoniyati cheklangan bolalarni tuman, shahar tibbiyot-pedagogik komissiyasi orqali maxsus maktab-internatlarga joylashtirishga ko'maklashish;
- _ ota-onasiz qolgan (etim), ota-onalaridan turli sabablarga ko'ra mahrum bo'lib qolgan bolalarni, voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlik profilaktikasi guruhi inspektorlari orqali tegishli "Mehribonlik" uylariga joylashtirishga ko'maklashish;
- _ sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni yangicha shakl va usullarda tashkil etish, tarbiyaga bir butunlikda hamda tizimli yondashish;
- _ o'quvchilarni milliy qadriyatlarga tayangan holda oilaviy hayotga tayyorlash;
 - _ ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarining mahallalar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilishiga erishish;

- _ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti, “Orasta qizlar”, “Zulfiyaxonim qizlari” klubi, “O'g'il bolalar kengashi” va “Sahovatli bolalar” harakati faoliyatini yanada jonlantirish;
- _ iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish;
 - _ bolalarning o'z o'quv muassasasi xududini toza, ozoda saqlash va obdonlashtirish (ta'lim muassasalari atrofidagi qarovsiz yotgan erlarda mevali bog'lar yaratish) ishlariga jalb etish, shanbaliklar tashkil etish;
- _ hamkorlikda olib borilgan ijobiy ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish va b.

1.2. Barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligini amalga oshirish shakllari va modullari.

Ta'lim va tarbiya sohasiga oid me'yoriy hujjatlar, ma'muriy ko'rsatmalarni samarali bajarishda oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarni talab etadi. Shunga mos talablar ham mavjud.

Birinchidan, o'tkaziladigan tadbirlar har tomonlama puxta, shuningdek qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik jihatdan uyg'unlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ayniqsa ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan jozibali bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, hamkorlikda olib boriladigan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va turli toifalardagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim.

Hamkorlik tadbirlarining mavzulari “Ota – onangga rahmat”, “Odobingga balli!”, “Sog' tanda – sog'lom aql”, “Qizlar ibosi”, “Bir yigitga qirq hunar oz”, “O'g'lim – posbonim”, “Hayot – ustoz, xalq – muallim”, “O'zbekiston – Vatanim manim!”, “Milliy burch va mas'uliyat”, “Oila etikasi”, “Oila tinch – mahalla tinch”, “Askarlik – yigitlik maktabi”, “Oila baxti – Vatan baxti”, “Sport va oilam”, “Oilamiz an'analari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Biz kimmiz?” kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, turli mavzularda boshqa tadbirlarni o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Namunali oilalar”, “Ota – oila ustuni”, “Ona – oila charog'boni”, “Uch avlod uchrashuvi”, “Kasbim – faxrim”, “Inson va texnika”, “Inson va tabiat”, “Inson va salomatlik”, “Inson va huquq, oila, nikoh” mavzulari shular jumlasidandir.

“Ota-onalar universiteti”ga kelsak, uni namunali tashkil etish barcha hamkorlik ishlari samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Universitetni to'rtta yo'nalishda boshqarish maqsadga muvofiqdir, ya'ni: 1) ma'naviy – ma'rifiy; 2) ijtimoiy-iqtisodiy; 3) pedagogik – psixologik; 4) huquqiy.

Mashg'ulotda mavzu ilmiy jihatdan asoslangandan so'ng, hayotiy misollar bilan mustahkamlanadi. So'ngra hamkorlik qilayotgan jamoalar, tashkilotlar, uyushmalar mahalla bilan olib borilayotgan ishlar hisoboti va kelgusida qilinadigan

ishlar haqida fikr yuritiladi, zaruriy topshiriqlar beriladi. Ta'lim muassasalari yutuq va kamchiliklari haqida rahbarlar tomonidan hisobot berib boriladi hamda muassasa ishlarini yaxshilashga doir takliflar o'rganilib, ota-onalar bilan muhokama qilinadi. Taxminan quyidagi mavzular muhokama etilishi mumkin:

- _ barkamol avlodni tarbiyalashda hamkorlikning ahamiyati;
- _ sog'lom va ma'naviy boy shaxsni tarbiyalashda oilaning o'rni;
- _ yoshlarni oilaga psixologik tayyorlash;
- _ muloqot psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar masalalari;
- _ bola shaxsini shakllantirishda ota-onaning o'rni;
- _ oilada bolani o'z ishini rejalashtirish va iqtisodiy tejamkorlikka o'rgatish;
- _ inson va ekologiya;
- _ yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish;
- _ Oila, o'smir va qonun.

“Ota-onalar universiteti” mashg'ulotlarini rejalashtirishda dolzarb muammolar bo'yicha mavzular tanlab olinadi va uning ilmiy-nazariy tomonlari yoritiladi.

Universitet mashg'ulotlari munozara, muloqot, uchrashuv, ko'rik tanlov shaklda o'tkazilsa, maqsadga muvofiqdir.

Taniqli olimlar, namunali oilalar, iqtidorli, ijodkor ota-onalar va bolalar, san'atkorlar, yozuvchi, shoirlar bilan uchrashuvlar o'tkazish ham universitet ishining samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi tarbiyaviy, tashkiliy, metodik ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'z shart-sharoiti, mavjud imkoniyatlariga qarab ish tutadi.

“Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashining tuzilmasi, boshqaruv faoliyati va ish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi 175-sonli qarori bilan tasdiqlangan tarkib asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” Jamoat kengashi tuzildi. Qorqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyatlar Xalq ta'limi boshqarmalari huzurida ham hududiy Jamoat kengashlari tuzilgan. Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlari huzuridagi Jamoat kengashlari tarkibi mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda tuzilib, tasdiqlangan. Shuningdek, ta'lim muassasalari huzuridagi Jamoat kengashlari umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi oldingi “Oila, mahalla, maktab” hamkorligi markazlari tarkibida faoliyat yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, Jamoatchilik kengashi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bir tizimga keltiradi. O'z faoliyatini o'quvchi yoshlar, ota-onalar va keng jamoatchilik ishtirokida olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoat kengashi hududlardagi jamoat kengashlari - Qorqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyatlar Xalq ta'limi boshqarmalari, shuningdek xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlari ta'lim muassasalari)ning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Jamoat kengashi faoliyatini yillik reja asosida yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoat kengashi - Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasida, Qorqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarida huzuridagi Jamoat kengashi - Ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'limida, Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlarida - Ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'limida va umumiy o'rta ta'lim maktablarida – “Ma'naviyat va ma'rifat” xonasida tashkil etiladi. Jamoat kengashi faoliyatini birinchi rahbar boshqaradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi qoshidagi Jamoat kengashi tarkibi: ta'lim muassasasi rahbari - rais, mahalla fuqorolar yig'ini raisi va O'rta maxsus ta'lim muassasasi direktori – hamrais, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlari, psixolog, xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisi, ota-onalar kengashi raisi, “Vasiylik va homiylik kengashi” raisi, mahallaning diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, “Kamolot” YoIH boshlang'ich tashkiloti raisi, tajribali sinf rahbarlari va namunali oilalarning vakillaridan iborat tarzda tashkil topadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshidagi jamoatchilik kengashi faoliyatida Nizomda belgilangan maqsad va vazifalari doirasida tashabbus, maslahat, taklif va mulohazalari bilan maktab pedagogik jamoasi, o'quvchilar jamoasi, ota-onalar qo'mitasi a'zolari, mahalla faollari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoat kengashi – yilda ikki marta, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarida huzuridagi Jamoat kengashi – chorakda bir marta, Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlari - ikki oyda bir marta va umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshidagi jamoat kengashi – oyda bir marta o'z yig'ilishlarini o'tkazadi.

Jamoat kengashining raisi yoki a'zolaridan birining taklifiga binoan kengashning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish mumkin.

Jamoat kengashi yig'ilishini kengash raisi olib boradi. Yig'ilish a'zolarining uchdan ikki qismi yig'ilganida o'tkazish vakolatga ega.

Jamoat kengashi raisi - Jamoat kengashi faoliyatini tashkil etadi va hamkorlikdagi ishlarni muvofiqlashtiradi, Jamoat kengashi yig'ilishida xuquqiy normativ va boshqa xujjatlarni muhokama uchun kiritadi, Jamoat kengashi qarorlari va tegishli hujjatlarni tasdiqlaydi va ijrosini nazorat qiladi. Jamoat kengashi faoliyati yuzasidan yuqori tashkilotlarga axborot beradi. Jamoat kengashining davlat va nodavlat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro munosabatini boshqaradi.

Jamoat kengashi raisi yo'qligi davrida uning vazifalarini hamrais bajaradi. Jamoat kengashi kotibining vazifalari kengash raisi tomonidan belgilanadi.

Jamoat kengashi tomonidan quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirilishi belgilangan:

oila, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (keyingi o'rinlarda ta'lim muassasalari deb ataladi) va mahalla hamkorligining samaradorligi va natijadorligini ta'minlash;

oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini yanada kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratishni tashkil etish;

ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish;

ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish;

qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta'lim muassasalariga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning uzviy ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash;

o'quvchi-yoshlarning zararli odatlar yo'liga kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

ta'lim-tarbiya jarayonini hamda ushbu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflarni belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga kiritish;

hududiy jamoat kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

Jamoat kengashida yuritiladigan va saqlanadigan hujjatlar ro'yxati quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarining ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid me'yoriy – huquqiy hujjatlari;

2) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi va "Mahalla" jamg'armasi tomonidan ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid chiqarilgan Hay'at qarorlari, buyruqlar, farmoyishlar va qarorlar;

3) mahalliy hokimiyat organlarining Jamoat kengashi faoliyati bilan bog'liq masalalardagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari;

4) ish rejasi;

5) majlis bayonnomalari va qarorlari;

6) fuqarolar murojaatlari;

7) yo'nalishlar bo'yicha hamkorlik va kelishuv shartnomalari;

8) o'quvchilar va ularning ota-onalari haqida ma'lumotlar va b.

"Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashining huquq va vakolatlari.

Jamoat kengashi faoliyati doirasida davlat va nodavlat tashkilotlardan zarur ma'lumotlarni talab etadi va taklif beradi.

Mahalla, ta'lim muassasalari va tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar va yig'ilishlarda ishtirok etadi.

Jamoat kengashi faoliyati doirasida tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda konferensiya, o'quv-seminar va davra suhbatlarini tashkil etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ta'lim muassasalari qoshidagi "Ota-onalar universitetlari" va umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshidagi "Oila, mahalla, maktab" hamkorlik markazlari faoliyatini o'rganadi, hamkorlik ishlarini kuchaytirish yuzasidan takliflar beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida erishgan yutuqlaridan kelib chiqib, o'quvchilar, ota-onalar va sinf rahbarlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha maktab, mahalla va tashkilotlar boshqaruviga tavsiyalar kiritadi.

O'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ishtirok etadi.

Jamoat kengashi faoliyatini obro'si haqida g'amxo'rlik qilish, uning maqsad va vazifalarini, shuningdek amalga oshirilgan ishlarni targ'ib qiladi.

“Oila–mahalla–ta'lim muassasasi” xamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 175-sonli qarori bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat Kengashi tomonidan yil davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'rnatilgan tartibda hududiy Jamoat kengashlarining yillik rejalari Jamoat kengashi a'zolari bilan kelishilgan holda ishlab chiqilib, tasdiqlanadi.

Mazkur rejani ishlab chiqishda hududiy xususiyatlar va imkoniyatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat Kengashining yillik rejasida belgilangan vazifalarning to'liq ijrosini ta'minlashga xududlarga biriktirilgan Jamoat kengashi a'zolari, hududiy Jamoat kengashi raislari va qaror bilan mas'ul etib ko'rsatilgan vazirlik va idoralar rahbarlari mas'uldir.

Jamoat kengashi a'zolari hamda tegishli vazirliklar va idoralar “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasida belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan o'z tizimlarida yarim yil va yil yakunlari bo'yicha monitoring yuritib, ularning ijrosini majlislarda muhokama qilib borishlari belgilangan.

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat Kengashi tomonidan ijro monitoringini yuritish yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'z navbatida hududiy Jamoat kengashlarida ham monitoring yuritiladi. Monitoring guruhlar tomonidan ma'lumotlar yozma va elektron nusxada ilovaga muvofiq quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

har oyning 22-sanasigacha umumiy o'rta ta'lim maktablaridan Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlariga;

har oyning 23-sanasigacha Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi Jamoat kengashiga;

har oyning 25-sanasigacha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi Jamoat kengashidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoat kengashiga;

har oyning 28-sanasiga qadar Jamoat kengashi kotibi yuborilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, Jamoat kengashi raisiga kiritish;

har chorak yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot berish belgilangan.

Hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlarni televidenie, radio va matbuot hamda manfaatdor vazirliklar va idoralarning o'z tarmoq gazeta va jurnallarida, maxsus veb-saytlari orqali keng yoritish hamda namunaviy va ilg'or ish tajribalarni ommalashtirish va ularning nazoratini yuritish maqsadga muvofiqdir.

Oila–mahalla–ta'lim muassasasi xamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishda fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar faoliyatining maqsadi, ularga qo'yiladigan talab, vazifa va ish uslublari.

Maslahatchi faoliyatining asosiy maqsadi fuqarolar yig'ini hududidagi aholiga, birinchi navbatda yoshlarga sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ibratli milliy-diniy an'analar hamda urf-odatlarni saqlash va rivojlantirish ishlarini tizimli tarzda amalga oshirishdan iboratdir.

Maslahatchi lavozimiga hayotiy tajribaga ega bo'lgan, aholiga, birinchi navbatda yoshlar ongiga sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ibratli milliy-diniy an'analar hamda urf-odatlarni saqlab qolish va rivojlantirish masalalarida ijobiy ta'sir o'tkaza oladigan, yoshi 40 yoshdan yuqori bo'lgan obro'li va faol ayollar tanlanadi.

Maslahatchi lavozimiga nomzodlarni tanlashda ularning bilimi, ma'lumoti, dunyoqarashi va talabchanligi, yig'in hududi va aholisini mukammal bilishi, tashabbuskorligi va tashkilotchiligi, yig'in a'zolariga har tomonlama o'rnak bo'la olishi, axloq-odobi va boshqa fazilatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Maslahatchi o'z vazifalari doirasida, ayniqsa, Oila–mahalla–ta'lim muassasasi xamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasida belgilangan vazifalarni bajarishda davlat va jamoat tashkilotlari, xususan, huquq-tartibot idoralari va ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Shuningdek, uning quyidagilar maslahatchilarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolar faolligini oshirish;

- jamiyatda xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar hushyorligi va ogohligini oshirish, tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoat tashkilotlarining quyi tizimlari bilan hamkorlikni mustahkamlash;

- aholida, eng avvalo, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolar yig'ini hududida huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot ishlarini tizimli amalga oshirish;

- milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan turli salbiy ta'sirlarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini samarali tashkil etish;

- mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik natijasida aholi farovonligi ta'minlanayotganligi, bu borada o'zining faol ishtiroki bilan munosib hissa qo'shib borish, har bir fuqaroning vatanparvarlik va fuqarolik burchi ekanligini ular ongiga singdirish;

- fuqarolar yig'ini hududida barqaror diniy va ma'naviy-axloqiy muhitni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, diniy

qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqishda fuqarolar yig'ini kengashiga ko'maklashish;

- diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid aholi takliflarini o'rganish va hayotga tatbiq etish orqali yig'in a'zolari o'rtasida tashabbuskorlikni oshirishga erishish;

- fuqarolarda diniy bag'rikenglik, boshqa din vakillariga hurmat, o'zaro birodarlik, qardoshlik tuyg'ularini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va amaldagi qonun hujjatlariga asoslanib faoliyat olib borish;

- fuqarolar yig'ini a'zolari o'rtasida jamiyatda dunyoviy va diniy qarashlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- nosog'lom diniy g'oyalar ta'siriga tushib qolgan oilalar va yig'in a'zolari bilan, shuningdek jinoyat sodir etganligi uchun jazo muddatini o'tayotgan yoki o'tab qaytgan shaxslarning oilalari bilan alohida ishlash, ularning ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashish;

- ichkilikbozlik va giyohvandlikka ruju qo'yganlarni, oila-turmush doirasida muntazam huquqbuzarliklar sodir etuvchilarni, o'zlarining jamiyatga zid xatti-harakatlari bilan farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoki ular tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalarni, notinch oilalarni, voyaga etmaganlarni turli huquqbuzarliklar sodir etishga undovchi shaxslarni, yoshlar ongini zaharlab, ularni turli diniy ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushishlarini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishdagi tashkilotlarga a'zo bo'lishga da'vat etuvchi, turli noqonuniy targ'ibot va tashviqot ishlari olib boruvchi shaxslarni, yoshlarga qonunga xilof ravishda diniy ta'lim beruvchilarni, konstitusiyaviy tuzumga qarshi turli axborotlarni tarqatuvchi shaxslarni aniqlash hamda ular bilan profilaktik-tarbiyaviy ishlar olib borilishida hamkorlik ko'rsatish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlar, shuningdek maxsus o'quv tarbiya muassasasidan qaytgan qiz bolalarni turar joy va ish bilan ta'minlashda amaliy yordam berish;

– ijtimoiy ko'nikma markazlari hamda tuman (shahar) xokimligi huzuridagi voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiya bilan hamkorlik o'rnatish;

– mahallaning ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan illatlar – turli jinoyatlar, o'z joniga qasd qilish, fohishabozlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik kabi muammolar yuzaga kelishining oldini olish, ularni bartaraf etish borasida maqsadli tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;

– xotin-qizlar orasida ichkilikbozlikka ruju qo'yishga va giyohvandlikka qarshi kurashish, shuningdek bunday illatga chalinganlarning tibbiyot muassasalarida tibbiy ko'rikdan o'tishlarini (shu jumladan, narkologik dispanserda tekin va anonim tarzda ko'rikdan o'tishlarini), zarur hollarda ularni majburiy davolash chora-tadbirlarini belgilashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tashkillashtirish;

– mahallada, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror bo'lishida xotin-qizlar o'rtasida turli jinoyatlar, o'z joniga qasd qilish, fohishabozlik, qonun hujjatlari talablariga zid tarzda voyaga etmagan qizlarni erta turmushga berish holatlarining sabablarini chuqur o'rganish, natijalari bo'yicha fuqarolar yig'ini kengashi, mahalliy hokimlik, huquq-tartibot idoralari va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda tezkor yig'ilishlarda muhokama etish bo'yicha takliflar tayyorlash hamda bunday salbiy illatlarning oldini olish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– oilalarda ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, uni diniy ekstremizm va aqidaparastlik mafkurasining ongni zaharlaydigan ta'siridan, giyohvandlik va boshqa salbiy ko'rinishlardan himoya qilish uchun zarur bo'lgan sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish;

– mahalla aholisi orasida oila va nikoh munosabatlarining qonuniyligini ta'minlash bo'yicha aniq tadbirlarni amalga oshirish;

– milliy, diniy urf-odatlar va marosimlarning ixcham va zamonaviy, keng aholi manfaatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishida yig'in kengashiga ko'maklashish;

– mahalla xotin-qizlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kiyinish madaniyatini yuksaltirish borasida aniq tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– fuqarolar yig'ini hududida xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidagi mavqeini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda yig'in kengashiga hamkorlik ko'rsatish;

– xotin-qizlarning ijtimoiy bandligi masalalariga alohida e'tibor qaratish, fuqarolar yig'ini kengashi va tegishli idoralar bilan hamkorlikda ayollarni doimiy ish joylari bilan ta'minlash borasida amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda hayotga tadbiq etilishiga erishish;

– tarbiyaga oid masalalar yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

– qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Maslahatchi ushbu belgilangan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi ish uslublarini qo'llash tavsiya etiladi:

– diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini olib borishda – jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar, uchrashuvlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish;

– bosma va elektron ommaviy axborot vositalari orqali o'z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan chiqishlarni amalga oshirish;

– xotin-qizlar dunyoqarashi, ularning bilimlari darajasini oshirishga xizmat qiluvchi tadbirlarni (badiiy kechalar, intellektual tanlovlar kabilar va h.k.) o'tkazishda vakolatli davlat organlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

– mahalla hududidagi mavjud oilalarning ijtimoiy-demografik xaritasi va ma'lumotlar bankini yaratish, ularga asoslangan holda aholi orasida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini olib borishning aniq chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish;

– hududda nosog'lom muhit yuzaga kelgan oilalar aniqlanganda ularga yordam berish uchun zarur chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirishni tashkil etish, bu borada mutaxassislar yordamidan foydalanish, zarur holatlarda bunday oilalar muammolarini hal etishda vakolatli davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

– muammoli, notinch oilalar bilan yakka tartibda ishlash, individual suhbatlar o'tkazish, bu borada boshqa mahalla fuqarolar yig'inlarining maslahatchilari bilan tajriba almashish;

– mahalladagi namunali oilalar va obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxslar salohiyatidan diniy-ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni amalga oshirishda samarali foydalanish, ularning hayotiy tajribasini ommalashtirish;

– fuqarolar yig'ini hududida norasmiy etakchi ayollarni aniqlash, ular bilan alohida ishlashning samarali shakllaridan foydalangan holda, ularni fuqarolar yig'ini faoliyatiga jalb etish;

– vakolatli davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari talablari asosida chop etilgan diniy-ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bukletlar, qo'llanmalar va risolalarni fuqarolar yig'ini kengashi bilan kelishilgan holda aholi orasida ommalashtirish;

– hududda o'tkaziladigan xalq sayillari, milliy va diniy bayramlar, umumxalq hasharlarining tashkiliy va mazmun jihatdan yuqori darajada o'tkazilishini ta'minlash, ularning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga erishishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda tashabbuskorlikni namoyon etish.

1.3. Mahalla o'quvchi modulini shakllantirish tartib tamoyillari

Fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir etuvchi omillarni oldini olish, hududlarni obodonlashtirish sohasida fuqarolar yig'inlarining hududiy profilaktika inspektorlari, mas'ul davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini ko'chaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish

Yurtboshimiz o'zlarining “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda mahallaning o'rni va roli haqida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bayon qildilar: “Mahallaning xalq ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritib, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazib, atroflicha tahlil qilar ekanmiz, hech ikkilanmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini, avvalo, mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'lamiz. Shu sababli biz ma'naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash, ma'naviy olamimizni yuksaltirishga intilar ekanmiz, bularning barchasi mahalla idorasiga yanada ko'proq imkoniyat berish, uning huquqiy va amaliy vakolatlarini kengaytirish bilan bevosita aloqador ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz”.

Davlatimiz rahbarining ushbu teran va chuqur hayotiy mulohazasi bugungi kunda mahallalarda ma'naviy-axloqiy muhitni ta'minlash borasidagi izchil tadbirlarimizda, o'zini o'zi boshqarish organlarini isloh qilish yo'lida olib borilayotgan siyosatimizda o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunda mahallaning ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, qadriyatlarimizni targ'ib qilish orqali oilani mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga etkazish, yordamga muhtoj oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi vakolatlari kengayib bormoqda.

Bugungi mavzu orqali fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir etuvchi omillarni oldini olish, hududlarni obodonlashtirish sohasida

fuqarolar yig'inlarining hududiy profilaktika inspektorlari, mas'ul davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini ko'chaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishga bag'ishlanadi.

Shunday ekan, mavzuni quyidagi alohida yo'nalishlarga bo'lgan holda ko'rib chiqamiz.

Birinchisi, fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning oldini olish;

Ikkinchisi, hududlarni obodonlashtirish sohasida fuqarolar yig'inlarining hududiy profilaktika inspektorlari, mas'ul davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish masalasi.

Avvalo, ijtimoiy muhit deganda biz nimani tushunamiz?

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida ijtimoiy muhitga quyidagicha ta'rif berilgan.

Ijtimoiy muhit – bu insonning yashashi va ishlashi uchun uni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar. Ijtimoiy muhit (mikro muhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o'quv va boshqa guruhlardan iborat. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda insonning ijodiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi, bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi.

Fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy–ma'naviy muhitga salbiy ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- notinch oilalar sonining o'sishi
- oilaviy nizolar,
- oilaviy ajrimlar sonini o'sishi,
- ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyatsizligi,
- norasmiy nikohlar,
- voyaga etmagan yosh qizlarni o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlariga ya'ni 12 yillik majburiy ta'limga jalb etmaslik, qizlarni balog'atga etmasdan turmushga uzatish va erta tug'ruq holatlari,

- otalikni belgilash holatlarining ortishi,
- jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning o'sishi,
- oila turmush doirasidagi jinoyatlar sonining o'sishi,
- ishsizlik darajasining ortishi,
- missionerlik harakatining rivojlanishi,
- aholi va yoshlarning diniy oqimlar ta'siriga berilishi,
- aholining huquqiy madaniyatining pastligi,
- kam ta'minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda adolat mezonlarining buzilishi,
- yoshlar orasida tamaki va spirtli mahsulotlar iste'mol qilish holatlari,
- fohishabozlik, buzg'unchilik illatlarining kuchayishi.

Yuqoridagi qayd etilgan salbiy omillar mahalladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Mahallada notinch oilalar, oilaviy nizolar sonining o'sishi fuqarolar o'rtasida mehr-oqibat o'zaro hurmat kabi muqaddas tuyg'ularni yo'qolishiga, qo'ni-qo'shnilarning tinchi buzilishiga, ularning kayfiyatiga, salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Oilaviy ajrimlar sonining o'sishi - ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyatsizligi, norasmiy nikohlarning ortib borishi natijasida ajralgan oilalardagi farzandlarning qarovsizligini, tarbiyasining bo'zilishiga olib keladi.

Umuman yuqorida sanab o'tilgan salbiy illatlar bir-biriga uzviy bog'langan. Misol uchun, aholi ishsizligining ortishi bu oilaning moddiy tomondan qiynalishiga olib keladi. Oilada moddiy qiyinchiliklarning yuzaga kelishi surunkali nizolarning kelib chiqishiga, oqibatda oilaning darz ketishiga, ajrim holatining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizdagi fuqarolar yig'inlari faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha, Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator yig'ilish qarorlari qabul qilindi. Xususan, 2012 yil 3 dekabrda 01-07/9-13-son bilan ro'yxatga olingan "Aholining huquqiy madaniyatini yanada oshirish, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash,

hududlarda sanitariya holatini yaxshilash, obodonlashtirish ishlarini tashkil qilishda vazirlik, idora va muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish to'g'risida”gi 262-sonli bayonida fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir etuvchi omillarning oldini olish, hududlarni obodonlashtirish sohasida fuqarolar yig'inlarining hududiy profilaktika inspektorlari, mas'ul davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlarni belgilash vazifalari qo'yildi.

Mahalla fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar yig'inlarining qonun hujjatlarida belgilangan vazifalari bilan bog'liq boshqa vazifalar ijrosini ta'minlashda yig'in faollarining hududiy profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qilishi bo'yicha namunaviy tavsiyalar, namunaviy haftalik, oylik va choraklik ish rejalar ishlab chiqildi.

Unga ko'ra, mahalla raislari, profilaktika inspektori va uy-joy mulkdorlari shirkati raislarining hamkorlikda amalga oshiradigan kunlik vazifalari quyidagilarda iborat:

- mahallalarda yashaydigan aholining muammolaridan doimiy ravishda xabardor bo'lish va ularni o'z vaqtida bartaraf etish, ularga qo'layliklar yaratish maqsadida fuqarolar yig'ini va profilaktika inspektori tomonidan belgilangan vazifalarini to'laqonli hamkorlikda bajarishlari uchun hududdagi maktab, kasb-hunar kollej va boshqa muassasalarning bo'sh turgan binosida faoliyat olib borishlari lozim;

- mahalla raisi va profilaktika inspektori haftalik va oylik rejalari, o'tkaziladigan uchrashuvlar va xonadonlarga tashrif vaqtlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan aholini tanishtirib borish maqsadida ko'p qavatli uylar va ko'chalarning qo'lay joylarida “Axborot burchagi”ni tashkil etishi;

- mahalla raisi va profilaktika inspektorining kundalik asosiy ish faoliyatining mezoni ularning hududidagi xonadonlarga kirish va oilalarning turmush tarzini o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

- Buning uchun mahalla raisi va profilaktika inspektori hamkorlikda haftalik va bir oy davomida hududdagi xonadonlar sonidan kelib chiqib oilalarni o'rganib chiqish bo'yicha reja ishlab chiqishi lozim bo'ladi;

- Rejaga asosan haftaning har kuni birgalikda 20-30 tagacha oilalarga kiradi va oilaning ijtimoiy ahvoli bilan yaqindan tanishadi hamda ularning muammolarini o'rganadi.

- har bir o'rganilgan oilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni va aniqlangan muammolarini maxsus daftarga yozib boradi;

- o'rganish natijalariga asosan oilalarni ikki xil toifaga, ya'ni "namunali" va "muammoli" oilalarga ajratadi.

- oilalarning muammolarini bartaraf etish bo'yicha hududga biriktirilgan uy-joy mulkdorlari shirkatlari raislari, bandlikka ko'maklashish markazi, gaz, suv, issiqliq ta'minoti, soliq, sanitariya epidemiologi markazi, maxsustrans inspektorlari, pochta xodimi, oilaviy poliklinika bosh vrachi va boshqalar bilan muammolarning echimi bo'yicha aniq choralarni belgilaydi, ijrosini tashkillashtiradi.

- mahalla raisi, profilaktika inspektori va uy-joy mulkdorlari shirkati rahbarlarining xududidagi xonadon egalariga amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobot berish jadvalini ishlab chiqib, jadval bilan aholini tanishtiradi.

hisobot yig'ilishining samarali va natijali bo'lishi uchun mahalla hududidagi mavjud xonadonlarni 50-100 ta xonadonga ajratgan holda o'tkaziladi;

- hisobot yig'ilishini o'tkazish vaqti va joyi to'g'risida "Axborot burchagi" orqali aholiga ma'lum qilib boriladi;

- hisobot yig'ilishida mahalla raisi kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, oilalarda o'tkazilgan o'rganishlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etganligi xususan, notinch oilalarni yarashtirish, maktab va kollej mashg'ulotlariga qatnashmayotgan o'quvchilarni davomati va ishsizlarni bandligini ta'minlash yuzasidan bajargan ishlari bo'yicha hisobot beradi;

- profilaktika inspektori tomonidan jamoat tartibini saqlash, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, noqonuniy yashovchilar, fohishalik va qo'shmachilik bilan

shug'ullanuvchi shaxslar, oilaviy janjalkashlarga nisbatan ko'rilgan choralar bo'yicha hisobot beradi;

- uy-joy mulkdorlar shirkati raislari ko'pqavatli uylarning qish mavsumiga tayyorgarligi, issitish tizimi, ichimlik suvi quvurlari, kanalizasiya lyuklari, elektr shitlari, bolalar maydonchalari va qurilmalari, lift, er to'la, zina poya, chordoq va boshqalarning sanitariya holati va sozligini ta'minlash bo'yicha bajargan ishlari to'g'risida hisobot beradi;

- hisobot yig'ilishida korxona va tashkilotlarning mahallaga biriktirilgan mas'ullarining ham amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti tinglanadi.

O'tkazilgan har bir hisobot yig'ilishlari bayonlashtiriladi. Aholi tomonidan bildirilgan taklif va kamchiliklarni aniq muddatlarda bartaraf etish bo'yicha chora-tadbir belgilaydi.

Mahalla raisi, profilaktika inspektori hisobot yig'ilishlari natijasi bo'yicha Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarida har oyda bir marotaba hisobot beradi.

- Qishloq tumanlardagi mahalla raisi va profilaktika inspektorining hamkorlikda amalga oshiradigan kunlik vazifalari:

- mahalla raisi va profilaktika inspektori bilan hamkorlikda haftalik va bir oy davomida hududdagi xonadonlar sonidan kelib chiqib, oilalarni o'rganib chiqish bo'yicha jadval ishlab chiqadi;

- jadvalga asosan haftaning har kuni birgalikda 20-35 tagacha oilalarga kiradi va oilaning ijtimoiy ahvoli bilan yaqindan tanishadi hamda ularning muammolarini o'rganadi.

- har bir o'rganilgan oilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni va aniqlangan muammolarini maxsus daftarga yozib boradi;

- o'rganish davomida oilalarni ikki xil toifaga, ya'ni "Namunali" va "Muammoli" oilalarga ajratadi.

- oilalarning muammolarini bartaraf etish bo'yicha hududga biriktirilgan bandlikka ko'maklashish markazi, elektr, gaz, suv ta'minoti, soliq, sanitariya epidemiologiya markazi, pochta xodimi, qishloq vrachlik punktlari bosh vrachi va

boshqa ma'sullar bilan muammolarning echimi bo'yicha aniq choralarni belgilaydi, ijrosini tashkillashtiradi.

- mahalla raisi va profilaktika inspektori xududidagi xonadon egalariga amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobot berish jadvalini ishlab chiqib, jadval bilan aholini tanishtiradi.

hisobot yig'ilishini samarali va natijali bo'lishi uchun mahalla hududidagi mavjud xonadonlarni 50-100 xonadonga ajratgan holda o'tkazadi;

- hisobot yig'ilishini o'tkazish vaqti va joyi to'g'risida "Axborot burchagi" orqali aholiga ma'lum qilib boriladi;

- hisobot yig'ilishida mahalla raisi kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, oilalarda o'tkazilgan o'rganishlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etganligi xususan, uy-ro'zg'or va xo'jalik yuritishdagi muammolar, notinch oilalarni yarashtirish, maktab va kollej mashg'ulotlariga qatnashmayotgan o'quvchilarni davomati va ishsizlarni bandligini, oilalarning ko'mir, o'tinlar bilan g'amlanishi yuzasidan bajargan ishlari bo'yicha hisobot beradi;

- profilaktika inspektori tomonidan jamoat tartibini saqlash, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, noqonuniy yashovchilar, fohishalik va qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi shaxslar, oilaviy janjalkashlarga nisbatan ko'rilgan choralar bo'yicha hisobot beradi;

hisobot yig'ilishida korxona va tashkilotlarning mahallaga biriktirilgan mas'ullarining xam amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti tinglanadi;

O'tkazilgan har bir hisobot yig'ilishlari bayonlashtiriladi. Aholi tomonidan bildirilgan taklif va kamchiliklarni aniq muddatlarda bartaraf etish bo'yicha chora-tadbir belgilaydi.

Mahalla raisi va profilaktika inspektori hisobot yig'ilishlari natijasi bo'yicha Halq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarida har oyda bir marotaba hisobot beradi.

Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, hududlarda sanitariya holatini yaxshilash, obodonlashtirish ishlarini tashkil qilishda davlat organlari, jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni yanada takomillashtirish

hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha fuqarolar yig'inlariga quyidagilar tavsiya etiladi;

1. Mahalla raisi va profilaktika inspektorining hududdagi xonadonlarga kirish va oilalarning turmush tarzini o'rganish bo'yicha:

- mahalla raisi va profilaktika inspektori hamkorlikda haftalik va bir oy davomida hududdagi xonadonlar sonidan kelib chiqib oilalarni o'rganib chiqish bo'yicha reja ishlab chiqadi;

- rejaga asosan birgalikda har haftada 50 tagacha oilalarga kiradi va oilaning ijtimoiy ahvoli bilan yaqindan tanishadi hamda ularning muammolarini o'rganadi;

- har bir o'rganilgan oilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni va aniqlangan muammolarini maxsus daftarga yozib boradi;

- oilalarning muammolarini bartaraf etish bo'yicha hududga biriktirilgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari raislari, bandlikka ko'maklashish markazi, gaz, suv, issiqliq ta'minoti, soliq, sanitariya epidemiologiya markazi, maxsus trans mutaxassislari, pochta xodimi, tibbiyot muassasasi xodimlari va boshqalar bilan muammolarning echimi bo'yicha aniq choralarni belgilaydi, ijrosini tashkillashtiradi;

- mahalla raisi, profilaktika inspektorining hududidagi xonadon egalariga amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobotlar berish jadvalini ishlab chiqib, jadval bilan aholini tanishtiradi;

- hisobot yig'ilishini o'tkazish vaqti va joyi to'g'risida mahalla binosidagi "Axborot burchagi" orqali, shuningdek boshqa tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali aholiga ma'lum qilib boriladi.

Mahalla raisi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Shuningdek, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, oilalarda o'tkazilgan o'rganishlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, notinch oilalarni yarashtirish, maktab va kollej mashg'ulotlariga qatnashmayotgan

o'quvchilarni davomati va ishsizlarni bandligini ta'minlash masalalariga e'tiborini qaratadi.

Profilaktika inspektori tomonidan jamoat tartibini saqlash, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, noqonuniy yashovchilar, fohishabozlik va qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi shaxslar, oilaviy janjalkashlarga nisbatan choralar ko'rish masalalariga e'tiborini qaratadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlar shirkati raislari "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Oilalarga borgan yig'in va sohaga oid xodimlar vakolati doirasida oilalardagi muammolarni o'z joyida bartaraf etish choralari amalga oshiradi hamda quyidagi tegishli tadbirlarni amalga oshiradi. Jumladan;

Fuqarolar yig'ini raisi oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal etish, turmush va uy-xo'jaligi madaniyati targ'ib etish, voyaga etmaganlarning davomatini nazorat qilish va ota-onalarga tushuntirish, to'y, udum va an'analar va marosimlarni ixcham o'tkazish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

ichki ishlar profilaktika inspektori oilalarga "Pasport rejimi qoidolari"ga amal qilish, ishsizlar va chetga ish axtarib ketgan va kelgan fuqarolarni ro'yxatini yuritish, oila a'zolari bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish va boshqa vakolatiga doir masalalar;

uy-joy mulkdor shirkati raisi shirkat tasarrufidagi uy-joylarni mavsumga tayyorlash, unda lift, er to'la, zina poya, chordoq, tom qismi va boshqa qismlarning sozligini ta'minlash, o'ziga tegishli hududni obodonlashtirish, bolalar maydonchalarini tartibga keltirish, maishiy chiqindilarni o'z vaqtida olib ketilishini ta'minlash, shirkat a'zo (fuqaro)lari tomonidan kommunal to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishini tashkil qilish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

bandlikka ko'maklashish markazi inspektori ishsizlar ro'yxatlarini yuritish, ish kvotalari bo'yicha axborot berish va ish bilan ta'minlash chorasini ko'rish va boshqa vakolat dorasidagi masalalar;

masjid imom-xatibi oilada turmush madaniyati, obodonlashtirish va tozalikni saqlash, diniy bag'rikenglik tamoyillarini targ'ib etish, to'y, udum va an'analar va marosimlarni ixcham o'tkazish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

tuman gaz idorasi inspektori mavsum davomida oilalarni tabiiy gaz bilan ta'minlanishini, aholi o'rtasida gazdan tejamkorlik foydalanish, noqonuniy isitish moslamalaridan foydalanishni oldini olish, foydalanilgan gaz to'lovini undirish bo'yicha chora-tadbirlar, yong'in xavfsizligini oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

tuman elektr korxonasi inspektori mavsum davomida elektr bilan ta'minlanishini, aholi o'rtasida elektrdan tejamkorlik foydalanish, noqonuniy elektr isitish moslamalaridan foydalanishni oldini olish, foydalanilgan elektr to'lovini undirish bo'yicha chora-tadbirlar, yong'in xavfsizligini oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

tuman pochta bo'limi xodimi nafaqa oluvchi fuqarolarga nafaqalarini to'lab borilishi va ularning kommunal to'lovlarini nafaqalari xisobidan to'lanishini tashkil qilish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

tuman soliq inspeksiyasi inspektori noqonuniy ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan sexlar, savdo shaxobchalari, alkogol va tamaki mahsulotlarini savdo qiluvchilarni aniqlash, ularni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, bozorlardagi narx-navolarni sun'iy ravishda oshib ketishini nazorat qilish hamda mol-mulk solig'ini undirilishini ta'minlash va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

oilaviy poliklinika uchastka hamshirasi oilalar o'rtasida tibbiy madaniyat, sanitariya, gigiena qoidalariga rioya qilinishini, uy-xo'jaligi madaniyati ta'minlash va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

tuman suv-soz korxonasi inspektori mavsumda oilalarning ichimlik suvi bilan ta'minlanishini, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, iste'mol qilingan ichimlik suv to'lovini undirish, hududlarda noqonuniy suvdan foydalanayotgan

(sex, avtomoyka va boshqalar)larni aniqlash, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

tuman issiqlik ta'minoti inspektori mavsumda oialarning issiq suv bilan ta'minlanishini, issiq suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, foydalanilgan issiq suv to'lovini undirish bo'yicha chora-tadbir, issiqlik ta'minoti quvurlarini saqlanish holati ustidan kundalik nazorat olib borish va salbiy xolatlarni oldini olish, issiq suv quvurlariga noqonuniy ulanishlarini aniqlash, oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

ta'lim muassasa (bog'cha, maktab, kollej, lisey)lari direktorlari hududidagi er maydonlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish, bolalar va o'quvchilar o'rtasida sanitariya gigiena talablariga rioya qilinishlarini tushuntirish, o'quvchilar davomatini nazorat qilish va ota-onalarga tushuntirish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

yig'inning diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi oilaviy madaniyat, turmush tarzi, qizlarni hayotga tayyorlash va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

yig'in mas'ul kotibi oiladagi kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nochor oilalar, ishsizlar va boshqalar ro'yxatlarini tuzish, ularga belgilangan moddiy yordam va nafaqalarini o'z vaqtida to'lanishi, moddiy yordam va nafaqa oluvchilar tomonidan kommunal, soliq va boshqa majburiy to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishini tushuntirish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar;

“Mahalla posboni” jamoat tuzilmasi raxbari oilalarda “Pasport rejimi qoidalari”ga amal qilinishini, chetga ish izlab ketgan fuqarolarni ro'yxatini yuritish va boshqa vakolatiga doir masalalar;

Shuningdek, yig'in va soha xodimlari bilan birgalikda soat 09-00 dan 18-00ga qadar hududdagi xonadonlarga tashrif buyuriladi va ular bilan sohaga oid yakka tartibda faoliyat yuritadi.

Unda quyidagi omillarga e'tibor qaratiladi:

- oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy holati;

- ota-ona va farzandlarining huquqiy savodxonligi va ularning tibbiy madaniyati;
- oiladagi turmush madaniyati;
- mahalla hududida qonun ustuvorligini va osoyishtalikni ta'minlashdagi ishtiroki;
- jamiyatda yurish-turish qoidalariga va axloq-odob mezonlariga rioya qilinishini;
- jamoat tartibi saqlanishini ta'minlash, mahallada tartib o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlar;
- fuqarolar tomonidan pasport rejimiga amal qilinishi;
- yong'in va harakat xavfsizligiga rioya qilinishi;
- xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilinishi, ularning oilada ma'naviy-axloqiy, shuningdek ruhiy muhit shakllanishi;
- ichkilikbozlik va giyohvandlikning oqibatlari;
- oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari;
- jamiyatga zid xatti-harakatlari bilan farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoki ular tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar;
- notinch va noqobil oilalar, voyaga etmaganlarni turli huquqbuzarliklar sodir etishga undovchi shaxslar;
- yoshlar ongini zaharlab, ularni turli diniy ekstremistik g'oyalar ta'siriga olish, turli noqonuniy targ'ibot va tashviqot ishlari olib borilishi;
- o'smirlarga qonunga xilof ravishda diniy ta'lim berish;
- tarbiyasi og'ir voyaga etmaganlar;
- oiladagi ishsizlar;
- noqonuniy ravishda xonadonda istiqomat qilayotgan, uzoq muddatdan buyon uyiga kelmayotgan va o'z uyida yashamayotgan, o'z uyini ishratxonaga aylantirgan, qo'shmachilik bilan shug'ullanayotganlar;
- to'y, ma'raka, udum va an'analar o'tkazilishi;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning oilalari, ularning farzandlariga bo'lgan munosabati;

- nizoli oilalar va nikohdan ajralishi xolatlari;
- kommunal to'lovlari qarzdorliklari va boshqa tegishli masalalar.

Soat 18-00 dan 19-00 gacha yig'in mas'ul kotibi kun davomida yig'in xodimlari va soha xodimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlari haqida hisobot tayyorlaydi, umumlashtiradi va yig'in raisi tasdiqlaydi hamda hisobotni “Mahalla” fondi tuman (shahar) bo'linmasiga taqdim etadi.

Shuningdek, Qonunda belgilangan umumiy mol-mulk, ya'ni ko'p kvartirali uylarning umumiy joylari, tayanch va to'siq konstruksiyalar, kvartiralar oralig'idagi ihotalangan (o'ralma) pillapoyalar, zinapoyalar, liftlar, liftning shaxtalari va boshqa shaxtalar, daxlizlar, texnik qavatlar, erto'lalar, cherdaklar va tomlar, uy ichidagi muhandislik tarmoqlari va kommunikasiyalari, joylar tashqarisida yoki ichida joylashgan va bittadan ortiq joyga xizmat ko'rsatadigan mexanik, elektr, sanitariya-texnika uskunalari va qurilmalari hamda boshqa uskunalar va qurilmalarni saqlash, boshqarish, xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash masalalariga e'tiborini qaratadi.

Mahalla raisi, profilaktika inspektori, xususiy uy-joy mulkdorlar shirkati raislarining faoliyati xalq deputatlari Kengashi huzuridagi doimiy komissiyalar tomonidan o'rganib boriladi, uning natijalari xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashida muhokama etiladi.

Shuningdek, mahalla raisi, profilaktika inspektori, xususiy uy-joy mulkdorlar shirkati raislari tomonidan o'z faoliyati yuzasidan har chorakda mahalla fuqarolar yig'iniga hisobot beradi.

2. Mahalla fuqarolar yig'inidagi imom-xatiblari:

- mahallaga biriktirilgan imom-xatiblar aholi o'rtasida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyati, kiyinish madaniyati, fuqarolar o'rtasida tinchlikning qadriga etish, uni asrab-avaylash har bir fuqaroning vazifasi ekanligini aholiga tushuntiradi;

- ota-onalarga o'z farzandlarini turli zararli oqimlar, “ommaviy madaniyat”ning salbiy illatlari ta'siriga tushib qolmasliklari uchun tarbiyasiga e'tibor berishlarini, ichimlik suvi, gaz, elektr tokini isrof qilmaslik, isrof qilish uvol

ekanligini, uvol qilish esa gunoh ekanligini hadisi-shariflarda, diniy adabiyotlarda belgilangan nuqtai-nazardan yondashgan holda hayotiy misollar orqali tushuntirib beradi;

- mahalla raisi va profilaktika inspektori bilan birgalikda xonadonma-xonadon yurib, mahalladagi notinch, noqobil oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

- mahallada istiqomat qilayotgan oilalarda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy illatlari, diniy ekstremizm va aqidaparastlik mafkurasining ongini zaharlaydigan ta'siridan, giyohvandlik, fohishabozlik va boshqa salbiy ko'rinishlardan himoya qilish uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy muhitni barpo qilish maqsadida mahalla raisi va profilaktika inspektori bilan birgalikda xonadonlarni o'rganishda qatnashadi;

- spirtli ichimliklarga muntazam ravishda ruju qo'ygan, giyohvand, o'z uyini ishratxonaga aylantirgan, fohishabozlik bilan shug'ullanayotgan shaxslarning oilasiga kirib borish orqali oila a'zolarining turmush tarzi va muammolarini o'rganib chiqadi va ularning ushbu salbiy illatlar bilan shug'ullanmasliklariga ko'maklashish ishlarini olib boradi;

- diniy aqidaparastlik ta'siriga tushib qolayotgan fuqarolar, ayniqsa, ayollar va yoshlar haqida mahalla raisi, hududiy profilaktika inspektoriga o'z vaqtida ma'lum qilib, jamoatchilik bilan hamkorlikda ularni diniy aqidaparastlik ta'siriga tushib qolishining oldini olish choralarini ko'radi;

- mahallada turli diniy ekstremistik oqimga mansub bo'lgan shaxslar, yarim-yalang'och behayo kiyimlar kiyib yuruvchi xotin-qizlar hamda o'z qizlarini hijobda yurishga undovchi ota-onalarni aniqlaydi va ular bilan mahallalardagi otinoyi ayollar hamkorligida tushuntirish ishlarini olib boradi;

- mahalla hududida davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etadi hamda ularni diniy ekstremizm va fanatizm g'oyalari ta'siridan saqlash choralarini ko'radi.

Mahalladagi ta'lim muassasalari (maktab, lisey, kasb-hunar kolleji) rahbarlari:

- o'quvchi-talabalarning darslarga qatnashini to'liq ta'minlash;

- notinch, noqobil, kam ta'minlangan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning tarbiyasi bilan individual ravishda shug'ullanishni tashkil etish;

- sababsiz dars mashg'ulotlariga qatnashmayotgan o'quvchilarning otalariga nisbatan tarbiyaviy ta'sir choralarini ko'rish maqsadida tushuntirish ishlarini tashkil qilish;

- ta'lim muassasasida tahsil olayotgan o'quvchi-talabalarning darsdan bo'sh paytlarini unumli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda targ'ibot-tashviqot ishlarini tizimli va manzilli tashkil etish, ya'ni ushbu holatlar sodir etilgandan keyin emas balki, sodir etilishini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni belgilash, bunda bevosida fuqarolar yig'inlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish talab etiladi. Shu o'rinda fuqarolar yig'inlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari faoliyatiga to'xtalib o'tsam.

O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 22 apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunining 9-moddasida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar – fuqarolar yig'ini organi deb ko'rsatilgan. Fuqarolar yig'ini huzurida hududdagi muammolar echimini hal qilish maqsadida turli komissiyalar tuziladi.

Ularga fuqarolar yig'ini xodimlari, mahalla faollari jalb etiladi. Har bir komissiya hududdagi muammolarni o'rganib chiqadi va shu asosida ish faoliyatini rejalashtiradi va vazifalar taqsimotini qilib, fuqarolar yig'inida tasdiqlatib oladilar va qilingan ishlar yuzasidan har chorakda hisobot berib boradilar.

Hududlarni obodonlashtirish sohasida fuqarolar yig'inlarining hududiy profilaktika inspektorlari, mas'ul davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish masalasi.

Mahalla hududlarini obodonlashtirish bugungi kunning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri bo'lgani uchun, mahallalarga bu borada jamoatchilik

nazoratini hamda obodonchilik borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish vakolati qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Xususan, “Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonunning 11-moddasiga ko'ra, shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari atrof-muhitni obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitishi, atrof muhitni muhofaza qilishga ko'maklashishi mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, qonunning 12-moddasida fuqarolar yig'ini kengashi aholining uylarni, hovlilardagi binolarni, uy-joylar atrofidagi hududlarni ko'kalamzorlashtirish va orasta saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi belgilangan.

Mahalla hududlarini obodonlashtirishning muhim sharti, ya'ni targ'ibot ishlari ta'sirchanligini oshirish, xonadonlar orastaligini ta'minlashdir.

Fuqarolar yig'inlarida kunlik, haftalik, oylik rejalar asosida ish tashkil etishda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, bir haftalik rejasiga to'xtaladigan bo'lsak, unga ko'ra har bir kunga alohida nom berilib, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan Qonunda belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiradigan ishlar belgilab qo'yilgan. Jumlandan,

Dushanba (Hamkor tashkilot vakillari bilan ishlash),

Seshanba va Chorshanba (Oilalar bilan ishlash),

Payshanba (Jamoatchilik nazorat),

Juman (maktab, kollej va ta'lim muassasalari bilan ishlash),

Shanba (Obodonlashtirish, tomorqadan samarali foydalanish),

Yakshanba (hafta davomida amalga oshirilganishlar tahlili) kunlari qilib belgilangan.

Misol uchun, Seshanba va Chorshanba (Oilalar bilan ishlash) kunida fuqarolar yig'inlarida chora-tadbirlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- fuqarolar yig'ining raisi, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, mas'ul kotib, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi raxbari o'z xonadonidan soat 08-00 da chiqib, yig'in idorasiga borguncha hududidagi ko'chalar va ko'chalardagi issiqlik ta'minoti va ichimlik suvi quvurlari, ariqlar, kanalizasiya lyuklari, elektr shitlari, ko'p qavatli uylar atroflari, bolalar maydonchalari va qurilmalari, axlat qutilari, ko'cha yoritgichlari, korxona va tashkilotlarning atroflari, uylarning lift, er to'la, zina poya, chordoq va boshqalarning sanitariya xolati va sozligi, xonadonlarda aholi tinchiligi va boshqa masalalar bo'yicha aylanib (obxod) chiqib, alohida yon daftarchasiga holatlarni yozib oladi hamda soat 08-50 ga qadar yig'in idorasiga boradi.

Soat 08-50 dan 09-00 gacha yig'in raisi, yig'in xodimlari tomonidan aniqlangan xolatlarni umumlashtiradi.

Yig'in mas'ul kotibi soat 08-30 gacha soha xodimlarini yig'in idorasiga chaqirtiradi. Mahalla fuqarolar yig'in idorasida yig'in raisi hududlarning xolati bo'yicha soha xodimlari (profilaktika inspektori, bandlikka ko'maklashish markazi, gaz, suv, issiqlik ta'minot, soliq, sanitariya epidemiologiya markazi, maxsustrans inspektorlari, pochta xodimi, uy-joy mulkdorlari shirkatlari raislari, oilaviy poliklinika bosh vrachi)ni ogohlantiradi hamda kamchiliklarni bartaraf etilishini nazorat qiladi.

Fuqarolar yig'inlarida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish komissiyasi ham faoliyat yuritadi.

Ushbu komissiya quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

- obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tashviqot-targ'ibot va amaliy ishlarini olib boradi.

- aholining uylarni, hovlilardagi binolarni, hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va orasta saqlash, bolalar va sport maydonchalarini jihozlash, yo'llar, ko'priklar, ko'chalar, yo'lkalar, kommunal tarmoqlarni qurish, qayta qurish, ta'mirlash va yaroqli holda saqlash, tarix va

madaniyat yodgorliklarini, qabristonlarni ta'mirlash ishlarida ixtiyoriylik asosida qatnashishlarini tashkil etadi.

- o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari bilan xududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va ekologiyaga qaratilgan ishlarni tashkil qiladi.

- hududda aholi tomorqalaridan samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlash yuzasidan tashviqot-targ'ibot va amaliy ishlarini olib boradi.

- tegishli hududdagi erlarning foydalanilishi va muhofaza etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning hududlarini belgilangan toifalarga ajratish hamda ular faoliyatini baholash uchun shahri, tuman (shahar) hokimliklari huzurida komissiyalar tuziladi.

1.tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi komissiyalarga quyidagicha shakllantiriladi:

Tuman (shahar) xokimining iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari – komissiya raisi;

“Mahalla” fondi tuman (shahar) bo'linmasi raisi – komissiya raisining o'rinbosari;

Komissiya a'zolari:

iqtisodiyot bo'limi rahbari;

ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari;

mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limi boshlig'i;

sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i;

ma'naviyat targ'ibot markazi bo'linmasi rahbari;

qishloq va suv xo'jaligi bo'limi boshlig'i;

xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limi boshlig'i;

o'rta maxsus kasb-xunar ta'limi muassasalari rahbarlari;

tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i;

moliya bo'limi boshlig'i;

madaniyat va sport ishlari bo'limi boshlig'i;

“Nuroni” jamg'armasi tuman bo'linmasi raisi;

“Kamolot” YoIH harakati tuman kengashi raisi;

xotin-qizlar qo'mitasi bosh mutaxassisi;

“Mahalla” fondi tuman (shahar) bo'linmasi mas'ul kotibi – komissiya mas'ul kotibi;

Baholash ishlari har chorakda o'tkazilib, uni tashkil etish va o'tkazishda qonuniylik, oshkoralik, adolatlilik, tenglik kabi asosiy prinsiplarga rioya qilinadi.

2.Bob. Mahalla faoliyatini boshqarish va uquvchi modulini ishlab chiqish bazasi.

2.1. Mahalla faoliyatini boshqarish va uquvchi modulini ishlab chiqishda modellashtirish usullaridan foydalanish.

Mahalla faoliyatini boshqarish va uquvchi modulini ishlab chiqishda modellardan foydalaniladi.

Modellar-ilmiy gipoteza bulib, fanni rivojlantirish shakli sifatida kurib kelgusidagi takomillashgan nazariya modellari kurinishida urganiladi.

Xayoliy modellar xaqiqiy dunyoni nazariy tushinish va aks ettirish shakli bulib, uni fizik bilish uchun katta urin egallaydi. Shuning uchun nazariy bilish va uslubiy jixatdan modellarni shakillantirish masalasi, ularni bilishda qullash va boshqa modellar, xayoliy va real tajribalar, gipoteza, nazariyalar bilan aloqasi katta axamiyat kasb etadi.

Xayoliy va moddiy modellarni quyidagicha tariflash mumkin:

Modellashtirish - bu biror bir ob'ektni (orginalni) boshqasi (model bilan) almashtirish va orginalni xususiyatlarini modelni xususiyatlarini tadqiq etish yuli bilan urganishdan iborat. Almashtirishdan asosiy maqsad orginal xususiyatlarini urganishni aniqlashni tezlashtirish, soddalashtirish, narxini kamaytirish imkonini beradi.Umuman ob'ekt-orginal sifatida ixtiyoriy tabiy yoki sun'iy, real (xaqiqiy) yoki xayoliy tizm bulishi mumkin.

Dastlabki modelni ishlab chiqishda tadqiqotchi intuisiyasi katta rol uynaydi.Boshlang'ich vaktlarda katta miqdordagi modellar oldinga surilishi mumkin.Ammo tadqiq etish jarayonida ularning soni kamayadi.

Model bilan ishlash shakli sifatida xayoliy tajriba quriladi.Ayrim xollarda xayoliy tajribalarni ideallashtirilgan deyiladi, chunki ular real tajribalar bilan bog'liqdir.Ma'lum miqiyosda xayoliy tajriba real tajribani ma'lum tomonlarini (xususiyatlarini) xayoliy obrazli rekonstruksiya qilishdan iboratdir.Xayoliy tajriba shartsiz ravishda xaqiqiy tajribaga qaraganda qulaydir.

Tajriba ob'ekt orginalni ma'lum tomonlarini (xususiyatlarini) modelda aks ettirishni adekvatlik me'zoni bulib kelmoqda.Tajriba xakam rolida bulib, model

yordamida olingan ta'savurlarni olib qolish yoki tashlab yuborish tug'risida echimini qabul qiladi.

Urganilayotgan xodisa, jarayon yoki ob'ektni matematik ifodalar (munosabatlar) va formulalar yordamida ta'savvur etish jarayoni matematik model deyiladi. Tadqiq etilayotgan ob'ektni modellashtrish ob'ektni shakillashtirishdan boshlanadi, ya'ni mos matematik modelni tuzishdan iborat. Buning uchun uning axamiyati kasb etgan tomonlari (xususiyatlari) ajratib olinadi (tanlanadi) va matematik munosabatlar yordamida yoziladi.

Matematik model tashkil etilgandan sung, ya'ni masalaga matematik shakl berilgandan sung uni urganish uchun matematik usullardan foydalanishimiz mumkin.

Modellashtirish asosan modelda tadqiq qilishga xalaqit beruvchi orginalni alomatlari mavjud bulmagan xollarda, yoki modelni xususiyatlarini urganish va belgilash imkonini beruvchi parametrlar mavjud bulganda maqsadga muvofiqdir.

Modellashtirish nazariyasi o'zaro bir-biriga bog'lik bulgan nizomlar, ta'riflar, modellarni yaratish va tadqiq etish usullari, vositalri tuplamidan iborat. Bu nizomlar, tariflar, usullar, vositalar va modellar modellashtirish nazariyasini predmetini tashkil etadi.

Masalani echish usulini tanlash yoki yaratish.Bu bosqichda vujudga kelgan matematik masala uchun mos keluvchi usul tanlanadi. Usul tanlashda asosan usulning murakkabligiga va talab etuvchi xisoblash resurslariga e'tibor berish mumkin. Agar mavjud bulgan usullar talabga javob bermasa yangi usul ishlab chiqarishga tug'ri keladi.Kupgina xollarda xisoblash xarakteristikolari buyicha samarali bulgan usul ishlab chiqiladi.

-Masalani EXM da echish uchun dastur tanlash yoki ishlab chiqish.Bu bosqichda tanlab olingan usulni EXMdan utkazish uchun mos dastur tanlanadi.Agar bunday dastur mavjud bulmasa yangi dastur yaratish zarur.

-EXM da masalani echish. Masalani echish uchun zarur axborat EXM xotirasiga dastur bilan kiritiladi. Mos dastur yordamida maqsadli axborat qayta ishlanadi va qulay kurinishda echim natijalari olinadi.

-Olingan echimni taxlil qilish. YEchim taxlili ikki kurinishda buladi: formal (matematik) ya'ni bunda tuzilgan matematik modeldan olingan echimni mosligi va mazmuniy (iqtisodiy, texnologik va x.k.) ya'ni olingan natijalarni modellashtirilgan ob'ektga mosligini tekshirish. Taxlil qilish natijasida modelga uzgartirishlar yoki aniqliklar kiritilishi mumkin va kurilgan jarayon qaytadan takrorlanishi mumkin. Tanlangan kursatkich buyicha ob'ekt faoliyatini etarli aniqlikda ifodalasa model yaratilgan va tugallangan xisobanadi. Ana shundan sung modelni turli xisoblashlarda foydalanish mumkin.

2.2 Mahalla uqo'vchi moduli ma'lumotlar bazasini loyihalash

Mahalla o'quvchi moduli ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishda Microsoft Access dasturidan foydalanamiz. Eng avvalo mahalla muhitiga ta'sir qiluvchi omillar bazasi shakllantiriladi.

Birinchisi, fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning oldini olish bo'yicha ma'lumotlar bazasi;

Ikkinchisi, hududlarni obodonlashtirish sohasida fuqarolar yig'inlarining hududiy profilaktika inspektorlari, mas'ul davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish masalasi bo'yicha ma'lumotlar bazasi;

Mahalladagi ta'lim muassasalari (maktab, lisey, kasb-hunar kolleji) rahbarlari:

- o'quvchi-talabalarning darslarga qatnashini to'liq ta'minlash;
- notinch, noqobil, kam ta'minlangan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning tarbiyasi bilan individual ravishda shug'ullanishni tashkil etish;
- sababsiz dars mashg'ulotlariga qatnashmayotgan o'quvchilarning otalariga nisbatan tarbiyaviy ta'sir choralarini ko'rish maqsadida tushuntirish ishlarini tashkil qilish;
- ta'lim muassasasida tahsil olayotgan o'quvchi-talabalarning darsdan bo'sh paytlarini unumli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Fuqarolar yig'inlarida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda targ'ibot-tashviqot ishlarini tizimli va manzilli tashkil etish, ya'ni ushbu holatlar sodir etilgandan keyin emas balki, sodir etilishini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni belgilash, bunda bevosida fuqarolar yig'inlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 22 apreldagi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Qonunining 9-moddasida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar – fuqarolar yig'ini organi deb ko'rsatilgan. Fuqarolar yig'ini huzurida hududdagi muammolar echimini hal qilish maqsadida turli komissiyalar tuziladi.

Mahallalarda ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlashda

2.3.Yarashtirish komissiyalari

Yarashtirish komissiyalari katta kuch hisoblanadi.

Yarashtirish komissiyalari O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojloantirish, mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalashga munosib hissa qo'shish, fuqarolarning oilada va mahalladagi tinch-osoyishta hamda hamjihatlikda yashashlarini ta'minlash, oilaviy kelishmoqchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida tuziladi.

Yarashtirish komissiyalari hududdagi oilalarning barpo etilishi, to'ylar, shuningdek, to'ylar oldidan to'ydan keyingi tadbir-hashamlarning o'tkazilishi, oilalardagi ijtimoiy-ruhiy vaziyatning mo'tadil bo'lishi uchun mas'ul bo'lgan asosiy tuzilmadir.

1. Yarash tirish komissiyalari hududda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib-tashviq qilish maqsadida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida bo'ladigan tadbirlarda, yig'ilishlarda ishtirok etadi va ularda ichkilikbozlik hamda giyohvandlikning oilaviy nizolarning asosiy sabablaridan biri ekanligi, oilalarning to'kisligi ularning tinch-totuvligiga bog'liq ekanligi to'g'risida chiqishlar qiladi.

2. To'y, ma'rakani va ular oldidan hamda ulardan keyin o'tkaziladigan boshqa tadbirlarni ortiqcha dabdabalarsiz o'tkazish, ortiqcha sarf-harajatlar oila turmushida salbiy iz qoldirishi, oilalardagi ijtimoiy-ruhiy muhitning buzilishiga olib kelishi mumkinligi to'g'risida aholi orasida tushuntirish ishlari olib boradi.

3. Mahallalarda, ko'chalarda va boshqa jamoat joylarida spirtli ichimliklarni, giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish hollarini oldini oladi. Inson qadriyatini tahqirlab, ko'chalarda mast holda yuruvchi shaxslarga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish maqsadida ularni oila a'zolari, mahalla faollari ishtirokida muhokama qilish choralarini ko'radi.

4. Spirtli ichimliklarga ashaddiy ruju qo'ygan va giyohvandlik kasaliga muhtalo bo'lgan shaxslarni aniqlab, zarur hollarda ularni belgilangan tartibda majburiy davolanishga yuborish choralarini ko'radi.

5. Milisiya hisobida turgan, ayniqsa ilgari sudlangan, oilada va turmushda muntazam ravishda huquqbuzarliklarga yo'l qo'yuvchi shaxslar bilan profilaktik ish

olib borishda ishtirok etadi. Zarur hollarda ularning xulq-atvori va turmush tarzini o'z majlislarida muhokama qiladi.

6. Jazoni ijro etish muassasalarda ozod etilgan shaxslarning oilalariga o'z vaqtida qaytishini nazorat qiladi, ularga turmush o'rtog'i va farzandlari bilan tez fursatda xukm etilmasdan oldingi munosabatlarini tiklashda, halol mehnat bilan kun kechirishga tezroq kirishishda ruhiy jihatdan madad beradi. Ular o'rtasidagi o'zaro ishonchning yo'qolmasligi uchun, agar yo'qolgan bo'lsa uni tiklash uchun xalqimizning sinalgan qadriyatlari va zurur hollarda islom dini yo'nalishidagi pand-nasihatlardan foydalanadilar.

7. Turmush o'rtog'i, farzandlari yoki keksa ota-onasi bilan muntazam ravishda notinch yashayotgan hamda oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash maqsadida har bir oilaning turmush tarzi va muhiti chuqur o'rganib boradi.

8. Hududdagi kam ta'minlangan oilalarni aniqlaydi, ularga o'z daromadlarini oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, qo'shimcha vaqtbay, shuningdek uy sharoitida ishlash, hunar o'rganish, kasanachilik bilan shug'ullanish bo'yicha imkoniyatlar yaratish choralari ko'radi. Bunday oilalarga belgilangan tartibda ijtimoiy hamda moddiy yordam ko'rsatilishi to'g'risida takliflar kiritadi.

9. Xotin-qizlar manfaatlarini himoya qiladi. Ularning ijtimoiy hayotda, oilada ma'naviy-ahloqiy, shuningdek ruhiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidagi mavqeini ishirishga qaratilgan keng qamrovli ishlarni amalga oshiradi.

10. Milliy qadriyatlarimizga zid holda axloq-odob doirasida nojo'ya xatti-harakatlarga yo'l qo'yayotgan shaxslarni, ayniqsa ayollarni aniqlash va ularga nisbatan tegishli chora-tadbirlarni ko'rishda fuqarolar yig'inlariga faol ko'maklashishadi.

11. Oilaviy janjallar oqibatida yuzaga kelgan er-xotin, aka-uka, opa-singil, ota-ona va farzand, qaynona va kelin, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi buzilgan munosabatlarni tiklash choralari ko'radi.

12. Har bir aniqlangan oila-turmush munosabatlari doirasidagi janjallar bo'yicha qonuniy choralar ko'rilishini ta'minlaydi.

13. Oilaviy janjallarning sabablarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Yarashtirish komissiyasiga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) raislik qiladi. Uning tarkibiga xotin-qizlar qo'mitasi raisi, milisiya hududiy inspektori, voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi milisiya inspektori, huddagi maktablarning direktorlari yoki ularning ma'naviy ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarlari, shuningdek mahallada istiqomat qiluvchi namunali oilalarning boshliqlari, imom-xatiblar, faxriylar va nuroniylar kiradi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash komissiyasi - mahallalar tomonidan bugungi kunda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam va voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga hamda ishlamayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha nafaqalar tayinlaydi.

Ma'naviyat targ'ibot komissiyasi - bu komissiya mahallalarda fuqarolarning huquqiy bilimi, ma'naviyati, madaniyatini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faoliyatini hamda davlat islohotlarini qabul qilish va joylarda amalga oshirish jarayonlarida ochiq va faol qatnashishlarini ta'minlash uchun alohida guruhlar bilan tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil qiladi. Huquqiy targ'ibot muassasalari bilan samarali hamkorlik o'rnatadi. Yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik hissiyotlarini har bir fuqaro ongiga singdirishga erishadi. Yoshlarni sport bilan shug'illanishlariga imkoniyat yaratish, oilaviy sportni rivojlantirish va mahalla hududida sport inshootlarini qurish va ulardan mahalla aholisining samarali foydalanishiga ko'maklashadi.

Ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport tadbirlarini va boshqa tadbirlarni o'tkazishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi.

Jamoatchilik nazorati va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya - qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek o'z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- tegishli hududdagi erlarning foydalanilishi va muhofaza etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ishi, savdo va fuqarolarga xizmat ko'rsatish madaniyati qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

- aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, turar joylar, maktablar va boshqa ta'lim muassasalarining sanitariya va ekologiya holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

- yong'inga qarshi xavfsizlik talablariga, jonivorlarni saqlashga oid veterinariya qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

- imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni orasta saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- davlat organlari va ularning rahbarlari tomonidan fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladi.

Xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi - mahalladagi oilalarda ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, uni diniy ekstremizm va aqidaparastlik mafkurasining ongni zaharlaydigan ta'siridan, giyohvandlik, fohishabozlik va boshqa salbiy ko'rinishlardan himoya qilish uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy muhitni barpo qilish maqsadida xonadonlarga kirib oilalarni o'rganishda qatnashadi.

- milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan fohishalik va qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi, o'z xonadonini ishratxonaga aylantirgan ayollarga nisabatan jamoatchilik ta'sirini ko'rsatish, fuqarolarning, shu jumladan, xotin-qizlar va voyaga etmaganlarning fuqarolik faolligini oshirish, mahallada ro'y berayotgan har qanday salbiy holatlarga befarq bo'lmaslik ruhida tarbiyalash ishlarini olib boradi;

- mahalla hududida joylashgan maktablar, o'quv muassasalarida o'quvchi qizlar o'rtasida davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etadi hamda ularni diniy ekstremizm va fanatizm g'oyalari ta'siridan saqlash choralarini ko'radi;

- ayollar o'rtasida ishsizlikning oldini olish maqsadida mehnatga layoqatli ish bilan band bo'lmagan ayollarning ro'yxatini tuzib, ularning ma'lumoti va qanday kasb-hunarga ega ekanligi to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirib, mahallaga biriktirilgan mehnat inspektori, mahallada fuqarolarning bandligini ta'minlashga bo'yicha tuzilgan komissiya, mavjud korxona va tashkilotlar, idoralar bilan hamkorlikda har qanday mehnat turlari bilan ta'minlash choralarini ko'radi;

Yoshlar va voyaga etmaganlar bilan ishlash hamda sport ishlari bo'yicha komissiya - mahalla yoshlari, o'quvchilar o'rtasida giyohvandlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, giyohvandlik vositalarining zarari, uning og'ir asoratlari to'g'risida davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etadi;

- sababsiz dars qoldirayotgan o'quvchilar ro'yxatini tuzib, ularning oilalariga sinf va kurs rahbari bilan birgalikda borib darsga bormaslik sabablarini aniqlaydi, darslarga surunkali qatnashmayotgan o'quvchilarning ota-onalari bilan tushuntiruv-profilaktik suhbatlarni olib boradi va ular davomatini ta'minlash choralarini ko'radi;

- dars vaqtida maktabga muntazam bormayotgan, sababsiz dars qoldiruvchi o'quvchilarni aniqlash, ularni ta'limga qaytarish maqsadida shartli "O'quvchi", "Bozor", "Davomat" reydlarini o'tkazib borilishini tashkillashtiradi;

- oliy o'quv yurtlari, kollej, lisey va maktablardagi o'quv jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, yoshlarning fikr-mulohazalari, maqsad va intilishlarini o'rganadi, o'tish davrida uchraydigan muammolar, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish nimalarga bog'liq ekani haqida bahs va muloqotlar o'tkazadi, zarur xulosalar chiqarib, tegishli idoralarga takliflar kiritadi;

- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarazini qaror toptirish, atrof-muhitni, Vatanimizning betakror tabiatini asrab-avaylash, muhofaza qilish, atrof muhitning sanitar holatini yaxshilash, obodonlashtirishga yo'naltirilgan ekologik tarbiyaning samarali usullaridan muntazam foydalanish choralarini ko'radi.

Mahallada tadbirkorlik, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirish ishlari bo'yicha komissiya - hududda yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlashga, shuningdek, mulkdorlar va tadbirkorlarning hamkorligini ta'minlash, kichik korxonalar ochish, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirish, milliy hunarmandchilik ustaxonalarini tuzish va yangi ish joylari ochish ishlarni tashkil qilishda ko'maklashadi.

Hududda ushbu komissiya faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali mahallada yashovchi ish bilan band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlash, umuman olganda hududda ishsizlikka barham beriladi. Har bir oilaning daromad manbai bo'lishiga erishiladi.

Bugungi kunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan qolmasligi hamda hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga etkazuvchi vorislar ekanligi ayni haqiqatdir.

Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan, oilada – ota-onalar, mahallada – qo'ni-qo'shni va keng jamoatchilik, ta'lim muassasasida – o'qituvchi va murabbiylar kelgusi avlod barkamolligi uchun, o'g'il-qizlarimizning ulug' ajdodlarimizga xos oqil bo'lishlari uchun mas'uldirlar.

Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, mustahkamlash va samaradorligini oshirishda “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashining faoliyatini alohida ta'kidlash o'rinli.

“Oila, mahalla, ta'lim muassasalari” hamkorligini samarali yo'lga qo'yish natijasida mahallaning ijtimoiy-ma'naviy muhitini barqarorlashtirish quyidagi ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

– farzandlari tarbiyasi bilan etarlicha shug'ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, lozim hollarda

bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko'rish;

_ yoshlarga diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning salbiy ta'sirini to'g'ri anglab etishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga keng jamoatchilikni safarbar qilish;

_ mahalla hududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olish;

_ oilalar, o'smirlar va yoshlar duch keladigan turli muammolarni bartaraf etish uchun mahalla qoshida "ishonch" telefonlari tashkil etish;

_ akademik lisey, kasb-hunar kolleji o'quvchi-yoshlarini ish bilan ta'minlash masalalarini xal etish, ayniqsa, qishloq joylarida ularning mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish, yosh qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish;

_ mahallada osoyishtalikni va ozodalikni ta'minlash, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish va doimiy ravishda nazoratga olish.

Oilalarni mustahkamlash va barqarorligini ta'minlash, farzand tarbiyasi ilmini egallashda ota-onalarga yordam ko'rsatish, oilada psixologik muhitni ta'minlash, oilalarda oila a'zolarining o'z sog'lig'i to'g'risida qayg'urish tuyg'usini shakllantirish hamda ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy va fiziologik bilimlarini oshirishga erishishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshidagi "Ota-onalar universitetlari" tashkil etilgan.

"Ota-onalar universitetlari" mahallaning ijtimoiy-ma'naviy muhitini barqarorlashtirishda quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

- ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy va fiziologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda yordam ko'rsatish va ma'ruzalar bilan ishtirok etish;

- farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar bilan ishlash, mahallada turli salbiy (jinoyatchilik, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlar o'rtasida jinoyatlar, notinch oilalar, o'z joniga qasd (suiqasd) qilish, fohishabozlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, voyaga etmagan qizlarni erta turmushga berish) holatlarining oldini olish;

- oilalarni mustahkamlash va barqarorligini ta'minlash, farzand tarbiyasi ilmini egallashda ota-onalarga yordam ko'rsatish, oilada psixologik muhitni ta'minlash, oilalarda oila a'zolarining o'z sog'lig'i to'g'risida qayg'urish tuyg'usini shakllantirish hamda ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy va fiziologik bilimlarini oshirishga ko'maklashish;


- mahallalarda "Mustahkam oila" g'oyasiga putur etkazadigan turli omillarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Bob Maxalla talabalar modulini MS Access tizimida bazasini yaratish.

3.1. MS Access tizimida bazasini mahalla va uquvchi moduli.


MS Access ni ishga tushirilib, qattiq diskda ma'lumotlar bazasi fayllarini saqlash uchun katalog yaratiladi va unga nom beriladi.

Masalan, Mahalla va uquvchinomi beriladi.




3.1.1-rasm

Instrumentlar panelida sozdat bazu dannx tugmasini bosing yoki Fayl menyusida Sozdat... buyrugini tanlang.




3.1.2-rasm Endi bazaga shakl beramiz



3.1.3-rasm

Ma'lumotlar bazasining oynasi quyidagi elementlarga ega:
 Sarlavxa satri.Ochilgan MB ismini chikaradi.
 Tugmalar. «Sozdat», «Otkrt», «Konstruktor» va x.k.z. Tugmalar ma'lum
 oynada va rejimda ob'ektni ochadi.
 Konstruktor orqli shaklni xoxlaganday o'zgartirishimiz mumkin.



3.1.4-rasm

Ob'ektlar oynalari. (ob'ektlarni tanlash yarliklari). «Tablisa», «Forma» va x.k.z. Ob'ektlar tugmalari ochilish yoki uzgarishi mumkin bulgan ob'ektlar ruyxatini chikaradi.

Ob'ektlar ruyxati .Foydalanuvchi tanlaydigan ob'ektlar ruyxatini chikaradi.Bizning variantimizda ruyxat xali bo'sh.Ma'lumotlar bazasini ishlab chikish ishini bevosita boshlashdan oldin MB ba'zi bir asosiy ob'ektlarning tavsiflariga tuxtaymiz.

Tablisa – bu ma'lumotlarni yozuv (satr) lar va maydon (ustun)lar kurinishida saklovchi ob'ekt. Odatda xar bir jadval bitta anik masala buyicha ma'lumotlarni saklash uchun ishlatiladi.

Zapros – kerakli ma'lumotlarni bitta yoki bir nechta jadvaldan olish imkonini beradi.

Forma – asosan ma'lumotlarni kiritish uchun ishlatiladigan Microsoft Access ob'ekti. Formada jadval maydonlaridagi ma'lumotlarni kiritish, tasvirlash va uzgartirishda ishlatiladigan boshkarish elementlarini joylashtirish mumkin.

Otchetlangan jadval. – ma'lumotlarni chop etish uchun muljallangan Microsoft Access Ma'lumotlar bazasi ob'ekt.

Jadvalni yaratishdan boshlash kerak.

Jadvalda ma'lum tur, masalan mijozlar yoki tovarlar ruyxatining, ma'lumotlarini saklovchi yozuv saklanadi. Jadvalning asosiy kismi maydon buladi.

Maydon – bu ma'lum bir turdagi, masalan, xodimlar familiyasi, ma'lumotlarga ega bulgan jadval elementi. Jadval rejimida maydonni ifodalash uchun ustun yoki yacheyka ishlatiladi, bu xolda maydon ismi jadval ustuni sarlavxasi buladi.

Yozuv – ma'lum ob'ekt xakidagi ma'lumotlarning tula tuplami.

XULOSA

Mahalla o'quvchilar modulini ishlab chiqish MB Acsees bazalarini yaratishda quyidagi xulosaga keldik :

1.Ta'lim-tarbiya jarayoniga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bazasi yaratish kerak;

2. Oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorligini yaxshilashga doir uslubiy asoslarni yaratish ma'lumotlar bazasi yaratish kerak;

3.Ta'lim-tarbiya jarayonini AKT ni takomillashtirish bo'yicha o'quvchi yoshlar va ularning ota-onalari orasida tegishli mutaxassislar (psixologlar, ijtimoiy xizmat mutaxassislari va b.)ni jalb qilgan holda turli so'rovnomalar o'tkazib borish, shuningdek psixologik maslahatlar, treninglar tashkil etish muxim;

4.Oila, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-xunar ta'lim muassasalari (keyingi o'rinda ta'lim muassasalari deb yuritiladi) va mahalla hamkorligining aniq samarasini ta'minlash;

5. Ota-onalar orasida farzandlar tarbiyasidagi konstitusion mas'uliyati va majburiyatini anglatish bo'yicha muntazam targ'ibot olib borish kerak;

6. Ota-onalarga "Ota-onalar universitetlari" tizimi orqali farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish zarur;

7. Ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish, o'quvchilarga bilim olishi va kasb-hunar egallashi uchun har tomonlama ko'mak berish kerak;

8. O'quvchi yoshlar ongi va qalbiga vatanparvarlik, insonparvarlik, kelajakka ishonch va intilish, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, ma'rifatparvarlik kabi fazilatlarni singdirish, ularda faol grajdanlik pozisiyasi va mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga erishish bazasi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori №PQ-1730, 21.03.2012
http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=1986827
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 27-son, 189-modda; 2013 y., 45-son, 584-modda)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 oktyabrdagi PF-4578-sonli Farmoni tahririda — O'R QHT, 2013 y., 45-son, 584-modda
o'zbekiston respublikasi prezidentining qarori
zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida
(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 13-son, 139-modda)
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 39-son, 508-modda; 2014 y., 29-son, 356-modda)
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni №PF-3080, 30.05.2002
http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=152470
- 6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori №200, 06.06.2002
http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=267044

7.O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni №560-II,
11.12.2003

http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=83472

8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zamonaviy axborot-kommunikasiya
texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi
qarori №PQ-1730, 21.03.2012

http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=1986827

9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Axborot-kommunikasiya
texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar
to'g'risida(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 27-son,
189-modda; 2013 y., 45-son, 584-modda)

ILOVALAR

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi tarkibi:

1. O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi markazi direktori, Jamoat kengashi xamraisi
2. Respublika Ma'naviyat tarfiobot markazi rahbari
3. Milliy foya va mafkura ilmiy-amaliy markazi rahbari
4. "Maxalla" jamfarmasi raisi
5. O'zbekiston Respublikasi Sofliqni saqlash vazirining o'rinbosari
6. Respublika Xotin-qizlar ko'mitasi raisining o'rinbosari
7. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosari
8. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi raisi
9. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi bosh direktori
10. "Oila" ilmiy-amaliy markazi direktori
11. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakati markaziy kengashi raisi
12. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining o'rinbosari
13. O'zbekiston musulmonlar idorasi raisining o'rinbosari
14. O'zbekiston Qaxramoni
15. O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zosi
16. Xalq ta'limi vazirligining ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'limi boshliqi, Kengash kotibi

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shaxar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari xuzuridagi "Oila-maxalla-ta'lim muassasasi" xamkorligi xududiy Jamoat kengashlarining namunaviy tarkibi:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari boshlig'i, xududiy Jamoat kengashi raisi
2. O'zbekiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi boshqarmasi boshlig'i, xududiy Jamoat kengashi xamraisi
3. "Maxalla" xayriya jamoat jam'armasi Qoraqalpoviston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limi boshqaruvi raisi
4. O'zbekiston Respublikasi Soflikni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar soflikni saqlash boshqarmasi boshlig'i
5. O'zbekiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Xotin-qizlar ko'mitasi raisining o'rinbosari
6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
7. O'zbekiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xududiy teleradiokompaniyasi direktori
8. O'zbekiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi boshlig'i
9. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakati Qoraqalpoviston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashi raisi
10. Respublika Ma'naviyat tarfiobot markazi xududiy bo'limi raxbari
11. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
12. Jamoatchilik vakillari
13. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasi ma'naviy-axlokiy tarbiya bo'limi boshlig'i, Kengash kotibi

Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlari xuzuridagi oila-maxalla-ta'lim muassasasi xamkorligi Jamoat Kengashining namunaviy tarkibi quyidagi tartibda shakllantiriladi:

1. Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limi mudiri - Jamoat kengashi raisi

2. O'rta maxsus ta'lim muassasasi direktorlaridan vakil, "Maxalla" xayriya fondi raisi - Jamoat kengashi xamraislari

3. Maktab direktorlari, O'rta maxsus ta'lim muassasasi direktorlari, Maxalla oqsokollari, Diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslaxatchilari

4. Tuman Xotin-qizlar qo'mitasi vakili

5. Tuman tibbiyot bo'limi boshligi

6. Xukuk-tartibot idoralari vakillari

7. Tuman xokimligi qoshidagi voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiya kotibi

8. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakati tuman raisi

9. Xududdagi tashkilotlar vakillari

10. O'quvchi-yoshlarni kasb-xunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha mas'ul xodim

11. Ota-onalar qo'mita raislari 3-5 nafar

12. Sinf (gurux) raqbarlari 3-5 nafar


13. Kotib

Umumiy o'rta ta'lim maktablari xuzuridagi "Oila-maxalla-ta'lim muassasasi" xamkorligi xududiy Jamoat kengashining namunaviy tarkibi quyidagi tartibda shakllantiriladi:


(ilova)

1. Maktab direktori, xududiy Jamoat kengashi raisi
2. O'rta maxsus ta'lim muassasasi direktori va Maxalla oqsoqoli, xududiy Jamoat kengashi xamraislari
3. Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va xukukbuzarlikning profilaktika inspektori
4. Xukuk-tartibot idoralari vakillari
5. Xudud tibbiyot shifoxonasi bosh shifokori
6. Maxalla qo'mitasining Diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslaxatchisi
7. Xududdagi tashkilotlar vakillari
8. Umumiy o'rta ta'lim maktab direktori o'rinbosari
9. O'rta maxsus ta'lim muassasasi direktori o'rinbosari
10. O'quvchi-yoshlarni kasb-xunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha tarfiobotchi, psixolog
11. Barcha sinf (gurux) ota-onalar qo'mita raislari
12. Barcha sinf (gurux) rahbarlari
13. Xayotiy tajribaga ega bo'lgan ota-onalar 1-3 nafar
14. "Oila, maxalla, maktab" xamkorlik markazining bo'lim rahbarlari (Izox: ushbu markaz faqat maktabda tashkil etilgan)
15. Kotib (ota-onalardan biri)


XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI XUZURIDAGI OILA-MAXALLA-TA'LIM MUASSASASI
XAMKORLIGI JAMOAT KENGASHI



Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi “Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligi hududiy Jamoat kengashlarining namunaviy tarkibi



**Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman bo'limlari huzuridagi oila-
mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi Jamoat Kengashining namunaviy tuzilmasi**



Umumiy o'rta ta'lim maktablari huzuridagi oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi

Jamoat Kengashining namunaviy tuzilmas

